Tadqiqot keysi uchun ham bu xosdir. Uning asosiy mazmuni shundaki, u vaziyat va bunda qanday hatti-harakat qilish kerakligi haqida yangi bilimlarni olish uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Bunday keysni talabalarni o'qitish uchun qo'llash qiyin. Keysning ta'limiy funksiyasi, bu holda modellashtirish usulini qo'llash orqali ilmiy tadqiqotlar ko'nikmalarini o'rgatishga qaratiladi. Bunday keys tadqiqot modelini yaratish tamoyillari asosida quriladi. Shuning uchun undan talabalarni oliy ta'limdagi asosiy fanlarini o'qitish usuli sifatida emas, balki, mutaxassislarning malakasini oshirish yoki kasbiy qayta tayyorlash usuli sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot funksiyasining ustunligi bunday keyslardan tadqiqot faoliyatida samarali foydalanishga imkon beradi.

Yuqorida keltirilgan keyslarning manbalari asosiy yoki birlamchi hisoblanadi, chunki, ular keyslarga ta'sir etuvchi eng muhim omillarni aniqlaydi. Shu bilan birga yuqorida tavsiflangan asosiy manbalardan kelib chiqadigan ikkilamchi keys manbalarini ajratish mumkin.

1. G'oyalarni ilgari surishi mumkin bo'lgan badiiy va publistik adabiyotlar, ba'zi hollarda gumanitar fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning syujetini aniqlaydi. Publistsik parchalar, ommaviy axborot vositalarida tezkor ma'lumotlarning kiritilishi keysni sezilarli darajada dolzarbligi va talabalarning unga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Badiiy adabiyot va publistikadan foydalanish keysning madaniy vazifasini belgilaydi va talaba shaxsining ma'naviy rivojlanishini rag'batlantiradi.

2. Keyslarni shakllantirish uchun manba sifatida "mahalliy" materialdan foydalanish. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, turli kompaniyalar faoliyati to'g'risidagi keyslarning eng qizg'in va qiziqarli muhokamasi kompaniya va uning mahsulotlari talabalar uchun ma'lum shaxsiy qiymatga ega bo'lganida yuz beradi. Agar talabalar yoki oila a'zolari

orasida ushbu kompaniyalar vakillari bo'lsa keysni ishlash jarayoni samarali va qiziqarli bo'ladi. Masalan, tibbiyot sohasi bo'lsa, mahalliy shifoxona yoki poliklinikada yuz bergan vaziyat talabalar tomonidan qizg'in muhokama qilinadi.

Odatda iqtisod yoki boshqa ijtimoiy fanlardan ishlab chiqiladigan keys iloji boricha mahalliy kompaniyalar yoki milliy bozorda u yoki bu shaklda mavjud bo'lgan tovarlar yoki xizmatlarning tajribasini qamrab olishi kerak. Mahalliy talabalar atrof-muhitni va keyslarda tasvirlangan voqealarning kontekstini yaxshi bilsalar, o'zlarini yanada ishonchli his qiladilar, ular uchun Amerika muhitini, amerikalik yoki boshqa xorijiy iste'molchilarning hatti-harakatlari va motivlarini muhokama qilish ancha qiyin bo'ladi. O'qituvchi shuningdek, mahalliy materiallarga asoslangan holda keysning muhokamasini yanada ishonchli his qiladi, chunki u mintaqani ham, korxonani ham yaxshi biladi. Bunday hollarni muhokama qilishda korxona vakilini taklif qilish uchun noyob imkoniyat mavjud. Tibbiyot talablarini o'qitishda esa bu unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki, kimyoviy moddalar va dorilar, biologik faol moddalar, kimyoviy jarayonlar, organizmda kechadigan biokimyoviy jarayonlar barcha uchun bir xildir. Ba'zi kamchiliklar zamonaviy asbob-uskunalarining institut bazasida mavjud yoki mavjud bo'lmasligi bilan kelib chiqishi mumkin. Buni ham o'qituvchi keys ishlab chiqish jarayonida ichki imkoniyatlardan kelib inobatga olishi mumkin.

3. Keysning ilmiy va jiddiyligini statistik materiallar, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlar va boshqa ma'lumotlar ta'minlaydi; ushbu materiallar vaziyatni aniqlash uchun to'g'ridan-to'g'ri vosita rolini o'ynashi yoki vaziyatni tushunish uchun eng muhim bo'lgan ko'rsatkichlarni hisoblash uchun material vazifasini o'tashi mumkin. Statistik materiallarni keys matnida yoki ilovada keltiriladi.

4. Keys uchun yaxshi materiallarni ma'lum bir muammoga bag'ishlangan ilmiy maqolalar, monografiyalar va ilmiy hisobotlarni tahlil

qilish orqali olish mumkin. Keysni ishlab chiqishda ilmiy adabiyotlardan foydalanish unga dolzarblik va aniqligini ta'minlaydi. Ilmiy maqola odatda ma'lum bir savolni chuqur ko'rib chiqish bilan tavsiflanadi; ilmiy monografiyada tadqiqot mavzusining tizimli, har tomonlama tavsifini olish mumkin; ilmiy hisobotning o'ziga xos xususiyati materialning dolzarbligi va yangiligini ta'minlaydi. Ilmiy nashrlar keys usulida ikkita vazifani bajarishi mumkin: birinchisi, ilmiy nashrlar va ularning qismlari ularni keysning matniga kiritish orqali ularning tarkibiy qismlari bo'lishi mumkin, ikkinchisi – keysni tushunish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yxatiga kiritilishi.

5. Keyslar uchun bitmas-tuganmas materiallar manbai bu – internetdir. Albatta, ushbu manba keng ko'lamliligi, moslashuvchanligi va samaradorligi bilan ajralib turadi.

II BOB. KEYS USULI ASOSLARI

Keyslarning ijobiy jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: amaliy yo'naltirilganligi; vaziyatni real hodisaga adaptatsiya qilish; ishtirok etuvchining faolligi; motivlashtirish sharoitini yarata olish; ishtirokchilarning mahoratini ishlatishi va kreativligini namoyish qilishi; ishtirok etuvchilarga u yoki bu vaziyatlarni real hayotda yecha olish yoki qo'yadigan xatoliklarini tushuna olish imkoniyatini yaratish.

A.M.Gurevich keyslarni quyidagi jihatlarini ajratadi: vaqtni strukturalashtirish ko'nikmasi, o'z fikrini himoya qila olish va dalillik, eshitish va boshqalar tomonidan eshitilish, prezentatsiya qilish malakasini rivojlantirish hamda ijodiy va kreativ yondashuv [21].

Keysda asosiy tushunchalar vaziyat va analiz hisoblanadi. Vaziyat termini o'zida bir necha ma'nolarni mujassamlashtirgan bo'lib, qarama-qarshilik va yuqori beqarorlikka ega ma'lum bir holatni ifodalaydi. Analiz tushunchasiga esa ob'yektni xayolan qismlarga bo'lish va ilmiy tadqiqot sifatida qarash mumkin. Analizning turli xillari mavjud: sistemali, korrelyatsion, omiliy, statistik va boshqalar. Umumiy holda aytish mumkinki, analizning hamma turlari keys-stadida ishlatilishi mumkin, bu esa uning imkoniyatlarini kengaytiradi.

Keysning yana bir samarililigi, uning turli o'qitish usullari bilan muvofiq kelishidir. 2-jadvalda keys bilan turli usullarning integratsiyalash imkoniyatlari keltirilgan.

Ta'lim jarayonini tashkil qilishning turli usullarini keys usuli bilan integratsiyalash mumkin. Keyslarning manbaisi sifatida jamiyat hayoti, ta'lim va fan bo'lishi mumkin.

N.S.Skuratovskaya turli asosga ega bir necha keys texnologiyalarini keltiradi [22]. Vazifasiga ko'ra keyslarni keys-tashkilot va keys-vaziyatga ajratib bo'ladi. Keys-tashkilot topshirig'ida kompaniya xarakteristikasi berilib, ma'lum parametrlar orqali vaziyatni analiz qilish talab etiladi. Odatda bu turdagi keyslarda qaror qabul qilish vazifasi qo'yilmaydi va shu sababli istalgan mutaxassislikka ega analitiklarni baholashda qo'l keladi. Keys-vaziyatda esa tashkilot, soha, odamlar to'g'risidagi ma'lumotni muammoli vaziyat bilan birgalikda beradi va undan eng maqbul chiqish yo'lini topish talab etiladi.

2-jadval.

Keys-stadida qo'llaniladigan usullar

Keys usuliga integratsiyalangan usullar	Keys usulidagi rolining mohiyati
Modellashtirish	vaziyat modlenini yaratish
Tizimli tahlil	vaziyatni tizimli tasavvur qilish va tahlil
Fikrlash tajribasi	vaziyatni fikran (xayolan) o'zgartirib bilim olish usuli
Tavsiflash usuli	vaziyatning tavsifini shakllantirish
Muammoli usul	vaziyat asosida yotgan muammoni tasavvur qilish
Klassifikatsiya usuli	vaziyatni tashkil etuvchi xossalar va tomonlarning tartiblangan ro'yxatini yaratish
O'yinli usul	vaziyat qahramonlarining o'zini tutish variantlarini tasavvur qilish
Aqliy hujum	vaziyatga nisbatan fikrlar xilma-xilligini ta'minlash
Diskussiya	muammo va uning yechimlari yuzasidan fikr almashinish

Masalan, In [23] va Steyk [24] keys turlariga turlicha ta'rif berishadi. In keys-stadini tushuntiruvchi, tadqiqot qiluvchi va ta'rif beruvchi kategoriyalarga ajratadi. Shu bilan birga u keyslarni birlik, bir butun va ko'plik keyslariga ajratadi. Steyk esa keyslarga ta'rif berganda, ularni ichki, instrumental yoki kollektiv turlarini ajratadi. Buni quyidagi jadavlada ko'rishimiz mumkin.

3-jadval.
Keys usuli turlari va tavsifi

Keys usuli turlari	Keys usuli tavsifi
Tushuntiruvchi	Real hayotdagi ma'lum bir hodisalarning kelib chiqishini tushuntirishga harakat qilganda, kuzatishlar va tajriba strategiyalarini amalga oshirish qiyinligi sababli bu turdagi keyslardan foydalanish mumkin. Bunda dasturiy effektlarni ishlovchi dastur bilan bog'lash orqali baholash mumkin
Tavsiflovchi	Bu turdagi keys-stadi real hayotda ma'lum bir vaqtda sodir bo'lgan va unga noma'lum bir tashqi aralashuv yoki hodisa ta'sirini tadqiq qilishda ishlatiladi
Ko'plik-keys-stadi	Tadqiqotchiga vaziyatlar ichidagi va ular orasidagi farqlarni tadqiq qilishga imkon beradi. Asosiy maqsad vaziyatlardagi natijalarni qaytarib bilishdir. Taqqoslashni qayd qilib borish imkoniyati bo'lganligi sababli, tadqiqotchi shunday keysni tanlashi lozimki, u o'xshash vaziyatlarni yoki kontrast natijalarini nazariya asosida oldindan aytib bilishi kerak bo'ladi

Keys usuli turlari	Keys usuli tavsifi
Ichki (yoki biror kishiga xos bo'lgan; shaxsiy)	Vaziyatga qiziqishi bo'lgan va uni yaxshi tushunishga intilgan tadqiqotchilar aynan shu turdagi keysdan foydalanishadi. Keysni ishlashdan maqsad boshqa hodisalarni taqqoslab o'rganish yoki ma'lum bir muammoni o'rganish emas, balki, aynan shu vaziyat qiziqarli bo'lgani uchun u o'rganiladi. Maqsad abstrakt konstruksiya yoki vaziyatning umumiy ma'nosini o'rganish emas, balki, nazariya tuzmaslikdadir
Instrumental	Konkret vaziyatni tushunish emas, balki, boshqa bir narsaga yetishish uchun qo'llaniladi. U nazariyani yaratishga (ichiga kirishga) va aniqlashtirishga imkon beradi. Bu keys bizga boshqa narsalarni tushunishga yordamchi vazifasini o'taydi. Bunda vaziyat boshqa vaziyatlarga nisbatan olinishi yoki olinmasligi mumkin
Kollektiv	Kollektiv keys-stadi tabiati va tavsifi bilan ko'plik-keys-stadiga o'xshaydi

Hajmi va ma'lumot strukturasi qarang keyslarni kompleks va mini keyslarga ajratish mumkin. Kompleks keyslar – yetarli darajada hajmli bo'lib (odatda 15 betdan boshlanadi), katta hajmdagi ma'lumotlar, birlamchi axborotlar, fikrlar, hujjat namunalari berilib, ba'zida haddan tashqari ko'p

axborot keltiriladi. Ta'lim oluvchi mustaqil ravishda unga qanday ma'lumot kerakligi va qanday analiz qilishni o'zi tanlaydi. Mini-keyslar – amaliy vaziyat bo'lib, muammoni qisqa shaklda tavsiflaydi (bir gap yoki bir abzasdan bir betgacha). Ma'lumot hajmi bilim va malaka ega bo'lgan ta'lim oluvchiga asosli xulosa chiqarishga yetarli hisoblanadi.

Keyslarni boshlang'ich manbasiga qarab ham klassifikatsiyalash mumkin. Ko'pchilik keyslar real kompaniya va hodisalar asosida ishlab chiqiladi. Shu bilan birga “simulyatsiya” – o'ylab topilgan vaziyatlarni ham tasniflashga yo'l qo'yiladi. Ammo, bunday keysning konkret ma'lumotlari kam bo'ladi.

Keyslar turli xil bo'lishiga qaramasdan ma'lum andoza va strukturaga ega. Odatda standart ta'lim keysi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- vaziyat – real hayotdagi hodisa, muammo, tarixiy voqea;
- vaziyat konteksti – joyning xronologik tarixiy konteksti va vaziyat ishtirokchilarining hatti-harakatlari;
- keysni ishlash uchun muallif tomonidan vaziyatga berilgan tavsiflar, savollar va topshiriqlar. Shu bilan birga keysda ilovalar ham bo'lishi mumkin.

Keysning tuzilishi va uni shakllantirish tamoyillari

Keyslarni ishlab chiqishda quyidagi asosiy bosqichlarni ajratib ko'rsatish tavsiya etiladi:

1. Keysning didaktik maqsadlarini shakllantirish. Ushbu bosqich keysning fan tarkibidagi o'rnini aniqlashni, ushbu vaziyatga bag'ishlangan fanning qismini aniqlashni o'z ichiga oladi; maqsad va vazifalarni shakllantiradi; talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarining “javobgarlik sohasini” aniqlash.

2. Muammoli vaziyatni aniqlash.
 3. Matnda aks ettirilishi kerak bo'lgan asosiy fikrlardan iborat bo'lgan keysning dasturiy xaritasini tuzing.
 4. Dastur xaritasining tezislari bilan bevosita bog'liq bo'lgan institutsional tizimni (kompaniya, tashkilot, bo'lim va boshqalar) qidirish.
 5. Keysning dasturiy xaritasi tezislari bo'yicha institutsional tizimda ma'lumot to'plash.
 6. Institut faoliyatini aks ettiradigan vaziyatning modelini ishlab chiqish yoki tanlash; uning haqiqatga muvofiqligini tekshirish.
 7. Keys janrini tanlash.
 8. Keys matnini yozish.
 9. Keysning to'g'riligi va samaradorligini diagnostikasi; ushbu keysning samaradorligini aniqlash uchun u yoki bu sxema bo'yicha qurilgan metodik o'quv tajribani o'tkazish.
 10. Keysning yakuniy variantni tayyorlash.
 11. Keysning o'quv amaliyotiga joriy qilish, uni o'quv mashg'ulotlarida qo'llash, shuningdek, uni keng tarqalishi uchun nashr etish; agar keys ma'lum bir kompaniya haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lsa, uni nashr etish uchun ruxsatnoma olish kerak.
 12. Keysdan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar tayyorlash: talabalar uchun topshiriqlarni ishlab chiqish va uni muhokama qilish hamda taqdim etish uchun mumkin bo'lgan savollar, keysni muhokama qilish paytida talabalar va o'qituvchining taxminiy harakatlarining tavsifi.
- Keysda quyidagilar bajarilishi shart:
- qiziqarli, sodda va tushunarli tilda yozilishi (agar kerak bo'lsa, xodimlar yoki kompaniya vakillarining gaplaridan iqtibos qilish tavsiya etiladi);

- “dramatik” va muammoli bo’lishi; muammoning “yadrosini” aniq ifodalashi;

- ijobiy va salbiy misollarni ko’rsatishi;

- tanlangan talabalar kontingentining ehtiyojlarini qondirish, kerakli va yetarli miqdordagi ma’lumotlarni o’z ichiga olishi.

Vaziyat modelini ishlab chiqish jarayonida muammoning ta’rifi va malakasi juda muhim o’rin tutadi. Shu bilan birga, keys matni qo’yilgan muammoning birorta ham yechimini taklif qilmasligi kerak.

Keysning formati va tuzilishiga qo’yiladigan talablar:

Syujet – bu vaziyatni tavsiflash, unda ma’lumotlarning manbasini ko’rsatib, vaziyat yuzaga kelgan muhitni tushunishga imkon beradigan ma’lumotlar mavjud:

- ishlab chiqilgan keysning real vaziyat asosining mavjudligi;

- kompaniya nomi, mahsulot nomi, mahsulot tavsifi, uning xususiyatlari;

- bosh qahramonlarning ismlari va lavozimi;

- ijtimoiy va iqtisod fanlari uchun – ushbu sohadagi bozorning holati (mahsulotlar, iste’molchilar, ishlab chiqarish, tarqatish va boshqalar) tavsifi; asosiy raqobatchilarni tahlil qilish (ularning strategiyalari, bozor pozitsiyalari, marketing va tarqatish siyosati);

- kompaniyadagi ishlarning umumiy holati, uning zaif va kuchli tomonlarini; dilerlar va sheriklar; boshqaruv strategiyasi; tashkiliy munosabatlar; boshqaruv guruhidagi asosiy ko’rsatkichlar; ishlab chiqarish operatsiyalari, mahsulotlar va jarayonlar; kompaniyaning moliyaviy holati; marketing ma’lumotlari; xodimlarning o’zaro munosabati;

- tabiiy va tibbiy fanlar uchun – kimyoviy moddalar va birikmalar, ularning fizik-kimyoviy xossalari; organizmda kechadigan fizik-kimyoviy va

biokimyoviy jarayonlar; biologik faol moddalar va dorilar; bemor to'g'risida to'liq ma'lumot va kasallik varaqasi; tabiiy landshaft, o'simliklar va hokazo.

Ma'lumot qismi bu voqealarning rivojlanishini to'g'ri tushunishga imkon beradigan ma'lumotlardir:

- kompaniyaning rivojlanish bosqichlari, rivojlanish tarixidagi muhim lahzalar, muvaffaqiyatlar va muvaffaqiyatsizliklar;

- kompaniyaning ish uslubi, boshqarish uslubi;

- muammoning qisqacha tavsifi, bir nechta turli nuqtai nazarlarni keltirish maqsadga muvofiqdir (keys voqealari qahramonlarining fikr mulohazalari);

- hatti-harakatlar yoki ta'sir qiluvchi omillarni ko'rsatadigan vaziyat rivojlanishining ma'lum bir xronologiyasi, ularning ta'siri natijalarini baholash maqsadga muvofiqdir;

- muammoni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar (agar mavjud bo'lsa), qanday natijalarga olib kelgan;

- ushbu vaziyatni hal qilish uchun qanday resurslarni ajratish mumkin.

Uslubiy qism – bu keysning o'qitiladigan fand tarkibidagi o'rnini ochib beradi, talabalar uchun vaziyatni tahlil qilish uchun vazifalarni va o'qituvchiga muayyan vaziyatni o'rgatish to'g'risidagi eslatmani shakllantiradi.

Syujet va axborot qismlari nisbatan mustaqil (ma'lumotlar ilovaga ko'chirilishi mumkin) va bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lishi mumkin. Ammo, har bir keysda uning maqsadi va vazifasi aniq ifodalangan bo'lishi kerak.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, keys video, audio, elektron vositalar yoki boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Talabalarga vaziyatning matni, ilovalar, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan savollarning nusxasi CD diskda yoki qog'oz variantda beriladi, bunda o'qituvchining nusxasi berilmaydi.

O'qituvchining keyslar o'quv eslatmasida mualliflar vaziyatlarni tahlil qilish bo'yicha aniq tavsiyalarni ishlab chiqishlari kerak, bunda muallif vaziyatlarni, ularning kalitlarini, shuningdek, darslarni o'tkazish uchun tavsiya etilgan metodologiyani keltiriladi.

Keyslarni tahlil qilish turlari va hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalar

Keyslarni tahlil qilish bu muayyan muammolarni hal qilish jarayoni bo'lib, bu jarayonda g'oyalarni shakllantirish doimiy ravishda mavjudligini anglatadi. Eng ko'p qo'llaniladigan va keys usulini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan asosiy tahlil turlarining xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz.

Muammolarni tahlil qilish "muammo" tushunchasiga asoslanadi. Aslida, muammolarni tahlil qilish muayyan muammoning tabiati, o'ziga xosligi va uni hal qilish usullari haqida xabardorlikni o'z ichiga oladi. Muammolarni tahlil qilish texnologiyasi quyidagi sohalaridagi muammolar tasnifi bilan tahliliy ishlarni o'z ichiga oladi:

- muammoning ta'rifini qondirilmagan ijtimoiy ehtiyoj sifatida aniqlash;
- muammoning fazo (muhit) va vaqt chegaralarini aniqlashni o'z ichiga oladigan muammoning fazo-vaqt bayoni;
- muammoning turini, xarakterini, uning asosiy tizim xususiyatlarini (tuzilishi, funktsiyalari va boshqalar) aniqlashtirish;
- muammoning rivojlanish shakllarini, uning oqibatlarini aniqlash;

- muammoga yechim topishning imkoniyatini tashxislash;
- muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan manbalarni aniqlash;
- muammoni hal qilish uchun tashkiliy va boshqaruv texnologiyalarini ishlab chiqish;
- muammoga yechim topish.

Ma'lumki, sabab-oqibat tahlili sabablarga asoslangan bo'ladi. Uning asosiy tushunchalari "sabab" va "oqibat" bo'lib, ular hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tavsiflaydi. Sabab-oqibat tahlil texnologiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- tadqiqot obyekti va mavzusining shakllantirish;
- tadqiqotning obyekti va predmetini tushuntirib, ba'zi, boshlang'ich hodisalarni mumkin bo'lgan sabab va yuzaga keladigan oqibatlar sifatida aniqlash;
- sabab-oqibat aloqalarining mavjudligini aniqlash, sabab va oqibatni aniqlash;
- sabab-oqibat munosabatlar turini tashxislash va uning xususiyatini aniqlash;
- sabab-oqibat zanjiri tarkibidagi ushbu sabab-oqibalarning o'rnini tushuntirish;
- o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarning sababliligini tushuntirish.

Pragmatik tahlil bu yoki boshqa obyekt, jarayonni, hodisani amaliy hayotda yanada samarali foydalanish nuqtai nazaridan tushunishni o'z ichiga oladi. Pragmatik tahlilning asosiy tushunchalari:

- a) Samaradorlik – minimal resurslar bilan yuqori natijalarga erishish;
- b) Natijadorlik – qo'yilgan maqsadga erishish qobiliyati;
- c) Baholash – samaradorlik va natijadorlik nuqtai nazaridan ma'lum bir hodisani tavsiflovchi kattalik.

Pragmatik tahlil bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

- obyekt yoki jarayonni funktsiyalari nuqtai nazaridan tushunish;
- tizim natijadorligini aniqlash;
- bajarilishi tizim talablariga javob bermaydigan funktsiyalarni aniqlash, tizim faoliyatining samaradorligini tahlil qilish;
- tizimning tarkibiy tahlili, uning tarkibiy muammolari, samarasizligi sabablarini aniqlash;
- tizimning imkoniyatlarini, uning potentsialini, foydalanilmagan zahiralarni o'rganish;
- tizim samaradorligini oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.

Aksiologik tahlil qiymat tizimidagi obyekt, jarayon, hodisani tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu tahlilga ehtiyoj jamiyatning qadriyat tafovutlari bilan ajralib turishi bilan izohlanadi. Turli xil ijtimoiy guruhlar vakillarining qadriyatlari bir-biridan farq qiladi. Shu sababli demokratik jamiyatda ko'pincha qadriyatlarni uyg'unlashtirish, qadriyatlar sheriklik muammosi yuzaga keladi, ularsiz odamlar normal munosabatda bo'lishi mumkin emas. Aksiologik tahlil metodologiyasi haligacha rivojlanmagan. Shu sababli quyidagi sxemani taklif qilish mumkin:

- baholanadigan ko'plab obyektlarni aniqlash;
- mezonlar va baholash tizimini aniqlash;
- mutaxassislar guruhini shakllantirish;
- aksiologik tekshiruv o'tkazish;
- obyektlarni baholash tizimini olish;
- baholangan obyektlarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Vaziyatni tahlil qilish keys usulini qo'llashda muhim ahamiyatga ega. Tahlilning ushbu turi vaziyatni, uning tuzilishini, uni belgilovchi omillarni, rivojlanish tendentsiyalarini va boshqalarni tushunish usullari va ularining kombinatsiyasiga asoslangan. Vaziyatli tahlil ko'p ma'noga ega bo'lgan

“vaziyat” atamasiga asoslanadi. Vaziyatni tushunishning xilma-xilligiga qaramay, turli xil kontseptual yondashuvlarga xos bo’lgan umumiylikni ajratib ko’rsatish mumkin. Avvalo shuni ta’kidlash kerakki, vaziyat ijtimoiy o’zgarishlarning natijasidir, u avvalgi vaziyatdan kelib chiqadi va keyingi vaziyatga o’tadi, ya’ni, u protsessual jarayon. Vaziyatni tanlashning muvaffaqiyati uning o’rganilgan bilimlarga muvofiqligi darajasi bilan, shuningdek, nostandartlik, unda qiziqish uyg’otadigan, tadqiq qilish motivatsiyasini berishi bilan belgilanadi.

Prognozli tahlil kelajak modellarini ishlab chiqishni emas, balki, undan foydalanish va unga erishish yo’llarini anglatadi. Aslida, ushbu tahlil prognostik diagnostika bilan boshlanadi, tahlil qilingan hodisa yoki jarayon kelajakka qanchalik mos kelishini bilib oladi. U o’z ichiga tahlilning ikki turini oladi: tizimning kelajakdagi holati va kelajakka erishish yo’llari aniqlanganda, normativ prognostik tahlil va istiqbolli vaziyatni tendentsiya modellarini yaratish orqali aniqlanadigan prognostik tahlil.

Tavsiyaviy tahlil muayyan vaziyatdagi qahramonlarning hatti-harakatlari bo’yicha tavsiyalar berishga qaratilgan. Tavsiyaviy tahlil tadqiqotchi va amaliyotchi o’rtasidagi o’zaro munosabatlar tizimida alohida rol o’ynaydi. Tadqiqot natijalarini amalga oshirishni ta’minlaydi. Ushbu tahlilning asosiy muammosi shundan iboratki, tadqiqotchining va boshqaruvchi amaliyotchining o’zaro bir-birini tushunishi va munosabati qiyin bo’lishi mumkin. Tadqiqotchi muammoni nafaqat nazariy jihatdan hal qilishi, balki, boshqaruvchining faoliyatini yaxshilash bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqishi va ularni amaliyotchi uchun tushunarli tilida bo’lgan toifalarga ajratishi kerak. Tavsiya etilgan tahlil pragmatik tahlildan farq qiladi, chunki, u muayyan vaziyatda xulq-atvor variantlarini ishlab chiqishni o’z ichiga oladi.

Dasturiy-maqсадli tahlil – bu aniq maqsadga erishish uchun dasturni ishlab chiqish jihatidan tavsiyaviy tahlilni yanada rivojlantirish turidir. U kelajakka erishish uchun batafsil modelni ishlab chiqishga e'tibor qaratadi.

Keys usulini amalga oshirish jarayonida hal qilingan vazifalar:

1. Vaziyat muammolarini, ularning tipologiyasini, xususiyatlarini, oqibatlarini, yechish usullarini (muammolarni tahlil qilish) ajratishni o'z ichiga olgan muammolarni tuzilishiga qarab ajratish (strukturalash) ni amalga oshirish.

2. Vaziyatning xususiyatlarini, tuzilishini, uning funktsiyalarini, atrofda va ichki muhit bilan o'zaro ta'sirini aniqlash (tizimni tahlil qilish).

3. Ushbu vaziyatning paydo bo'lishiga olib kelgan sabablarni va uning rivojlanishining oqibatlarini aniqlash (sabab-oqibatlar tahlili).

4. Vaziyatdagi faoliyat mazmunini diagnostikasi, uni modellashtirish va optimallashtirish (prakseologik tahlil).

5. Vaziyatni, uning tarkibiy qismlarini, sharoitlarini, oqibatlarini, ishtirokchilarini baholash tizimini qurish (aksiologik tahlil).

6. Ehtimoliy, potentsial va maqbul kelajak haqida bashoratlarni tayyorlash (prognostik tahlil).

7. Vaziyatdagi qahramonlarning xulq-atvori bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish (tavsiyaviy tahlil)

8. Ma'lum vaziyatda faoliyat dasturlarini ishlab chiqish (dasturiy-maqсадli tahlil).

Yuqorida tavsiflangan keyslarni tahlil qilish usullari va vaziyatni o'rganish usulini amalga oshirish jarayonida hal qilingan muammolarning umumiy xususiyatlariga asoslanib, ularni hal qilish uchun asosiy tavsiyalarni shakllantirishimiz mumkin.

Keyslarga javob topishni 5 bosqichda amalga oshirish tavsiya etiladi:

Birinchi bosqich – vaziyat va uning xususiyatlari bilan tanishish.

Ikkinchi bosqich – asosiy muammoni (asosiy muammolarni) aniqlash, haqiqatda ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillar va shaxslarni aniqlash.

Uchinchi bosqich – konsepsiya yoki “brain storming” uchun mavzularni taklif qilish.

To'rtinchi bosqich – ma'lum bir qaror qabul qilish oqibatlarini tahlil qilish.

Beshinchi bosqich – bu keysning yechimi bo'lib, bir yoki bir nechta variantni (harakatlar ketma-ketligi) taklif qilish, muammolar yuzaga kelishi mumkinligini, ularning oldini olish va hal qilish mexanizmlarini ko'rsatib berish.

Keyslarni tahlil qilish ixtisoslashtirilgan yoki keng qamrovli bo'lishi mumkin. Ixtisoslashtirilgan tahlil muayyan masala yoki muammoga qaratilishi kerak. Keng qamrovli (batafsil) tahlil keysning asosiy masalalariga chuqur kirib borishni o'z ichiga oladi.

Keys usuli ta'lim texnologiyasi sifatida

Kasbga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi sifatida keys usulidan foydalanish hamda algoritmlash qiyin bo'lgan murakkab jarayondir. Rasmiy ravishda quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin:

- talabalarni keys matni bilan tanishtirish;
- keysni tahlil qilish;
- keys muhokamasini, uning yuzasidan munozarani, taqdimotni tashkil etish;
- munozara qatnashchilarini baholash;
- muhokamani umumlashtirish.

Talabalarni keys matni bilan tanishtirish va uni keyinchalik tahlil qilish ko'pincha muhokama qilinishidan bir necha kun oldin amalga oshiriladi va

talabalarining mustaqil ishi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, tayyorgarlik uchun ajratilgan vaqt keysning turi, hajmi va murakkabligiga qarab belgilanadi.

Ushbu bosqichda keys bilan ishlashning umumiy sxemasini quyidagicha ko'rsatish mumkin: birinchi navbatda, keysning asosiy muammolarini aniqlash va taqdim etilgan ma'lumotlardan qaysi birini hal qilish uchun muhimligini tushunish kerak; keysning vaziyatga qismi va uning asosiy ishtirokchilari kimligini aniqlash; tahlil qilish uchun zarur bo'lgan faktlar va tushunchalarni tanlash, muammoni hal qilishda qanday qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkinligini tushunish; keyingi bosqich esa tadqiqot usulini tanlashdan iborat.

Hajmi kichik keyslarni muhokama qilish o'quv jarayoniga kiritilishi mumkin va talabalar ular bilan bevosita auditoriyada tanishishlari mumkin. Bu holda nazariy kursning ushbu keys uchun asoslantirilgan qismi talabalar tomonidan o'qilishi va ishlab chiqilishi juda muhimdir.

Agar talabalar ular bilan oldindan tanishib chiqqach, ularni tahlil qilishda tizimli yondashuvga rioya qilsalar, asosiy bosqichlari quyida keltirilgan holda keyslar bilan ishlashdan yuqori natijaga erishiladi. Buning uchun quyidagi amallarni bajarishni tavsiya etamiz:

1. Keysni tahlil qilishda foydalanishingiz kerak bo'lgan nazariy tushuncha va yondashuvlarni yangilash uchun fanning tegishli bo'limlaridan asosiy g'oyalarni yozing.

2. Keys haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish uchun uni tezda o'qing.

3. Keysda berilgan savollarni diqqat bilan o'qing va nima qilish kerakligini yaxshi tushunganingizga ishonch hosil qiling.

4. Keys matnini qayta o'qing, keltirilgan savollarga bog'liq bo'lgan barcha omillarni yoki muammolarni aniqlang.

5. Keys bilan ishlashda ko'rib chiqish taklif qilingan muammolar bilan qanday fikr va tushunchalar bog'liqligini baholang.

Keyslar bilan ishlashning umumiy qoidasi shundaki, siz “doiradan tashqarida” bo'lgan ma'lumotlardan foydalana olmaysiz. Masalan, agar talaba topshiriqda bayon etilgan ma'lum kompaniya yoki vaziyat haqida gazetada maqolani o'qigan bo'lsa, undan dalillarni olish taqiqlanadi, chunki, qaror qabul qiladigan menejer hisoblanadi, talaba esa uning o'rnida bo'lgan vaziyatda faqat keysda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib keysni ishlashi kerak. Ba'zida, aksincha, talabaga ko'rib chiqilayotgan davrda mavjud bo'lgan bozor sharoitidan dalillarni qo'shish imkoniyati berilishi mumkin. Bunday hollarda talabaning bilim darajasi va ma'lumotlarni bilish darajasi hisobga olinishi kerak.

Keysning muhokamasini tashkil etish talabalar uchun savollarni shakllantirishni, ularni muhokama va munozaraga ishtirok etishini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Odatda savollar oldindan tayyorlanadi va talabalarga keys matni bilan birga taqdim etiladi. Ta'lim keysini tahlil qilayotganda, o'qituvchi faol yoki passiv pozitsiyani egallashi mumkin, ba'zida u tahlilni “boshqaradi”, ba'zan esa muhokamani umumlashtirish bilan cheklanadi.

Keyslarning muhokamasini tashkil etish odatda ikkita usulga asoslanadi. Ulardan birinchisi an'anaviy Garvard usuli deb ataladi va u ochiq munozara shaklida o'tkaziladi. Muqobil usul bu individual yoki guruhli so'rov bilan bog'liq usul bo'lib, uning davomida talabalar vaziyatni rasmiy og'zaki baholaydilar va taqdim etilgan vaziyatni, ularning qarorlari va tavsiyalarini tahlil qilishni taklif etadilar, ya'ni, taqdimot taryyorlab uni ma'ruza qiladilar. Ushbu usul o'qituvchiga nazorat qilishni osonlashtiradi va ba'zi talabalarga o'quv mashg'ulotlarida mehnat qilishni (o'qishni) minimallashtirishga imkon beradi, chunki, har bir talaba darsda bir yoki ikki

marta suhbatlashadi. Usul talabalarining muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi, ularni o'z fikrlarini aniq ifoda etishga o'rgatadi. Biroq, bu usul Garvard uslubiga qaraganda dinamikligining past ekanligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga ochiq munozarada ishtirokchilarni tashkillashtirish va nazorat qilish yanada murakkablashadi.

Muhokama keys usulida muhim o'rin tutadi. Bu usul talabalarining fikrlash darajadasi sezilarli yetuk va mustaqilligiga ega bo'lgan, bahslasha oladigan, o'z nuqtai nazarlarini isbotlaydigan va asoslay oladigan holatlarda qo'llash tavsiya etiladi. Munozaraning eng muhim xususiyati bu kompetentligidir va bu uning ishtirokchilari kompetentligi darajasi yig'indisidan kelib chiqadi. Talabalarining munozaraga tayyor emasligi uni rasmiy shaklga olib keladi va uni mustaqil ravishda emas, balki, o'qituvchidan ma'lumotlarni "tortib olish" jarayoniga aylantiradi.

Muhokamadagi asosiy omil uning o'qituvchisi tomonidan boshqarish darajasi hisoblanadi. Muhokamani olib borishda, o'qituvchi har bir talabaning muhokamada ishtirok etishini ta'milashi, barcha talabalarining argumentlarini ularga berilgan tushuntirishlarni tinglashi, munozara jarayoni va yo'nalishini boshqarishi kerak, ammo, mazmunini emas.

Keysni muhokama qilish va tahlil qilish jarayonida munozarani tashkil etishda "aqliy hujum" (brain storming) deb nomlangan g'oyalarni shakllantirish usulidan foydalanish alohida o'rin tutadi.

"Aqliy hujum" yoki "miya hujumi" usuli o'tgan asrning 30-yillarida A.Osborn tomonidan muammolarni guruh bo'lib hal qilish usuli sifatida taklif qilingan. Yigirmanchi asrning oxiriga kelib, ushbu usul menejment va o'qitish amaliyotida nafaqat mustaqil usul sifatida, balki, uning samaradorligini oshirish maqsadida faoliyat jarayoniga bevosita qo'llanilib keldi. "Aqliy hujum" o'quv jarayonida talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirishning eng

muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. “Aqliy hujum” uchta bosqichni o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqich – bu psixologik xotirjamlikka erishish, stereotiplardan voz kechish, kulgili va muvaffaqiyatsiz bo'lib ko'rinishdan qo'rqish; g'oyalar mualliflikni yo'qotganda, odatiy holga aylanganda, qulay psixologik muhit va o'zaro ishonchni yaratish orqali erishiladi. Ushbu bosqichning asosiy vazifasi tinchlanish va xotirjamlikka erishish.

Ikkinchi bosqich – bu hujum jarayoni bo'lib, ushbu bosqichning vazifasi oqim va g'oyalar ko'chkisini yaratishdir. Ushbu bosqichda “aqliy hujumi” quyidagi printsiplarga muvofiq amalga oshiriladi:

- fikr bor – fikrimni aytaman, fikrim bo'lmasa – jim turmayman;
- eng shiddatli o'xshatish rag'batlantiriladi, g'oya qanchalik ishonib bo'lmaydigan bo'lib ko'rinmasin u shuncha yaxshi bo'ladi;
- taklif qilingan g'oyalar soni iloji boricha ko'proq bo'lishi kerak;
- ifoda etiladigan g'oyalarni o'zlashtirish va birlashtirish, shuningdek o'zgartirish va takomillashtirishga ruxsat beriladi;
- tanqid qilish mumkin emas, har qanday fikrni yomon deb tan olishlaridan qo'rqmasdan ifoda etish mumkin, tanqidchilarni fikr bildirishdan mahrum qilinadi;
- ishtirokchilarning ijtimoiy holati muhim emas; bu mutlaq demokratiya va shu bilan birga aqldan ozgan g'oyalar ustuvorligi;
- barcha g'oyalar fikrlarning protokol ro'yxatida qayd etiladi;
- nutq so'zlash vaqti 1-2 daqiqadan oshmasligi kerak.

Uchinchi bosqich – bu quyidagi qoidalarga muvofiq muammoning konstruktiv yechimini topish uchun fikrlarni ijodiy tahlil qilish:

- barcha g'oyalarni ularning hech birini kamsitmasdan tahlil qilish;
- tizimda g'oya uchun joy topish va fikr uchun tizim topish;
- keraksiz narsa va shaxslarni ko'paytirmaslik;

- olinadigan natijaning go'zalligi va nafisligi buzilmasligi kerak;
- tubdan yangi qarash bo'lishi kerak;
- "go'ngdan marvarid"ni qidirib toping.

Keys usulida aqliy hujumi, agar guruh vaziyatni tushunishda haqiqiy qiyinchiliklarga duch kelsa, u talabalar faolligini oshirish vositasi bo'lib ko'rinadi. Shu ma'noda aqliy hujum yangi yechimlarni topish uchun vosita kabi ko'rinmaydi, garchi uning roli istisno qilinmasa ham, kognitiv faoliyatning "bombasi" uchun o'ziga xos "pilik" vazifasini bajaradi.

Taqdimot yoki keysni tahlil qilish natijalarini taqdim etish, keys usulining juda muhim qismidir. O'z intellektual mahsulotini ommaviy ravishda namoyish etish, uni yaxshi reklama qilish, samarali foydalanish uchun uning afzalliklari va mumkin bo'lgan yo'nalishlarini namoyish etish, shuningdek, tanqidga qarshi tura olish zamonaviy mutaxassisning juda muhim ajralmas sifati hisoblanadi. Taqdimot insonning juda ko'p chuqur fazilatlarini rivojlantiradi: iroda, ishonch, maqsadga yo'nalganlik, qadr-qimmat va boshqalar; u jamoat bilan muloqot qilish, o'z imidjini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Omma oldida taqdimot qilish (nutq so'zlash) keysning yechimlarini guruhga taqdim qilishni bildiradi, jamoat faoliyati va munozarada ishtirok etish qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantiradi. Og'zaki taqdimot talabalarga qisqa muddatli ta'sir qilish xususiyatiga ega bo'lib, shuning uchun talabalar tomonidan idrok etish va eslab qolishi qiyin. Ma'ruzachining tayyorlik darajasi uni munozarani olib borish jarayonida namoyon bo'ladi; barcha bayonotlarni aniq va rad qilib bo'lmaydigan darajada tayyorlash unchalik shart emas. Keysni tahlil qilishda materialning ushbu tarzda taqdimoti muhokamani boshlab yuborishi mumkin bo'ladi. Og'zaki taqdimot paytida notiqning hissiy kayfiyatini hisobga olish kerak, bunda notiqning munosabati va hissiyotlari ushbu xabarga sezilarli hissa qo'shadi. Omma

oldida taqdimot (nutq so'zlash) qilishning afzalliklaridan biri bu uning moslashuvchanligidir. Notiq atrofdagi o'zgarishlarga javob bera oladi, tinglovchilarning kayfiyatini his qilib, uslubi va materialini moslashtiradi.

Omma oldida taqdimot qilinmaydigan taqdimotning samarasi kamroqdir, ammo, uning ta'limdagi o'rni juda katta. Ko'pincha omma oldida taqdimot qilinmaydigan taqdimot topshiriq bo'yicha hisobot shaklida bo'ladi, shu bilan birga matnni tayyorlash, hisobotni aniq va tiniq tuzish, hisob-kitoblarda xatolarga yo'l qo'ymaslik va boshqalar kabi fazilatlar rag'batlantiriladi. Keys bo'yicha yozma tahlil tayyorlash og'zaki tahlilga o'xshaydi, farqi shundaki, yozma taqdimot hisobotlari odatda ko'proq strukturalangan va batafsildir. Keysni yozma tahlil qilishning asosiy qoidasi – bu matndagi ma'lumotlarning oddiy takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik, ma'lumotlar qayta ko'rib ishlab chiqilgan shaklda taqdim etilishi kerak. Buda eng muhimi taqdim etilgan materialning o'ziga xos tahlili, uning tegishli talqini va kiritilgan takliflardir. Yozma hisobot taqdimoti og'zaki nutqdan ma'lum vaqt o'tgach berilishi mumkin, bu talabalarga muhokamada olingan barcha ma'lumotlarni sinchkovlik bilan tahlil qilishga imkon beradi.

Keysni tahlil qilish natijalarini yozma va og'zaki ravishda taqdim etish guruhli va individual bo'lishi mumkin. Hisobot topshiriqning murakkabligi va hajmiga qarab individual yoki guruhli bo'lishi mumkin. Individual taqdimot javobgarlik hissini, o'zini o'zi tarbiyalaydi va irodani shakllantiradi; guruhli esa tahliliy qobiliyat, materialni umumlashtirish qobiliyati va loyihani tizimli ravishda ko'rishni shakllantiradi.

Taqdimot o'qituvchi tomonidan talabalarga qiyin vaziyatni muntazam ravishda tasavvur qilish imkoniyatini berish maqsadida, o'qituvchi ushbu vaziyatni talabalarga taqdim etganda, ularni qiziqtirishga harakat qilganda yoki umuman guruhning natijalarini taqdim qilganda taqdimotni qo'llashi mumkin.

Oraliq va yakuniy taqdimotni o'tkazish tavsiya etiladi. Birinchisi oraliq natijani taqdim etish bilan bog'liq bo'lsa, yakuniysi tayyor yechimni beradi.

So'nggi paytlarda keyslardan foydalanish tobora ommalashib bormoqda, bu nafaqat talabalarni o'qitish bosqichida, balki, imtihonlarda o'qitish natijalarini tekshirishda ham qo'llaniladi. Talabalar imtihon oldidan keyslarni qabul qilishadi, ular uni tahlil qilishlari va imtihon beruvchiga unda berilgan savollarga javoblari bilan hisobot berishlari shart. Talabalarga keysni bevosita imtihon vaqtida taklif qilish mumkin, ammo, keys cheklangan vaqt oraliq'iga mos keladigan darajada qisqa va sodda bo'lishi kerak.

Muhokama ishtirokchilarini baholash – bu keys usuli orqali eng muhim o'rganish muammosidir. Sinov va bilimlarni baholash mashg'ulotning didaktik tamoyillariga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Quyidagi baholash talablari ajratiladi:

- obyektivlik – tinglovchilarning bilimlari to'liq aniqlanadigan sharoitlarni yaratish, ularga yagona talablarni taqdim etish, barchaga odil munosabat;

- baholarning asoslanganligi – ularga dalillarning keltirilganligi;

- tizimlilik – talabalarni tashkil etish va tarbiyalash, maqsadga erishishda qat'iyat va intilishni shakllantirishning eng muhim psixologik omilidir;

- har tomonlamalilik va maqbullik.

Baholash quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- nazorat qiluvchi – talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlab beradi;

- o'qitish – chunki, talabalardan ma'lum darajadagi o'rganishni talab qiladi;

- tarbiyalash – chunki, uni ishlash jarayonida talabalarning shaxsiy fazilatlarini shakllantiradi;

- talabalar faoliyatini tashkil etadi;
- talabalarning fikrlash, iroda va axloqiy fazilatlarini rivojlantiradi;
- metodik – o'quv metodlarini takomillashtirishga imkon beradi.

Ta'kidlash joizki, natijalarni baholashning an'anaviy besh balli tizimi keys bilan ishlashga yaxshi moslashtirilmagan. Uning asosiy kamchiligi shundaki, u kichikligi sababli oraliq ish uchun ball to'plashga, talabalar faolligini, ularning takroriy faolligini baholashga imkon bermaydi; tizimning qamrovi va yig'ilib borish imkoniyati mavjud emas. Bilimni baholashning 100 balli tizimidan foydalanish afzaldir.

Turli xil o'qitish usullarida talabalarni baholashga turlicha yondashishni talab qiladi, o'qituvchi esa talabalarga mashg'ulotlar davomida maqsad qilgan bilim va ko'nikmalarni egallashlarini talab qilishi kerak. Agar klassik o'qitish metodikasi nazariy bilimlarni aniqroq baholashga imkon beradigan kollokviumlar va yozma ishlardan foydalanishga moyil bo'lib, imtihon shunga mos ravishda tuzilgan. Interfaol metodikada esa talabalarning muayyan vaziyatni tahlil qilish, qarorlar qabul qilish, mantiqiy fikrlash qobiliyati kabi juda ko'p bilimlarni baholashni talab qiladi. Bunda yakuniy baholashda ballarni shakllantirishning ko'p komponentli usulidan foydalanish yaxshidir va quyidagilardan iborat bo'lishi tavsiya etiladi:

- munozara yoki taqdimotda talabalarning qatnashish faolligi darajasi bilan o'lchanadigan;
- tayyorlangan yozma ishlar uchun.

Biroq, talaba tomonidan auditoriyada aytilgan har qanday fikrini avtomatik ravishda uning hisobiga kiritish yaramaydi. Talabaning muhokamada yoki omma oldida taqdimot (nutq so'zlash) qilishi bilan uning faoliyatini baholash kerak va uning tarkibiga quyidagilarni inobatga olish lozim:

1. Oldindan jiddiy tahlil qilish urinishlarini tavsiflovchi nutq (takliflarning to'g'riligi, tayyorgarlik ko'rilganligi, asoslanishi va boshqalar).

2. Chuqur muhokamani talab qiladigan ma'lum bir qator masalalarga e'tibor berish.

3. Kategoriyali apparatlarga ega bo'lish, tushuntirishlar berish, tushunchalarning mazmunini aniqlash.

4. Agar ilgari bayon qilingan fikrlar umumlashtirilib, mantiqiy xulosalarga olib keladigan bo'lsa, mantiqiy fikrlash qobiliyatini namoyish qilish.

5. Ilgari e'tibor berilmagan muqobillarni taklif qilish.

6. Qarorni amalga oshirish uchun aniq harakatlar rejasini yoki amalga oshirish rejasini taklif qilish.

7. Keysni tahlil qilishda e'tiborga olish kerak bo'lgan muhim elementlarni aniqlash.

8. Miqdoriy ma'lumotlarni, hisob-kitoblarni qayta ishlashdagi ishtirok.

9. Munozarani yakunlash.

Omma oldida taqdimot qilinmaydigan (yozma) taqdimot paytida talaba tomonidan berilgan amaliy tadqiqotlar tahlili qoniqarli hisoblanadi, agar:

- keysdagi muammolarning aksariyati shakllantirilgan va tahlil qilingan bo'lsa;

- mumkin bo'lgan maksimal miqdordagi hisob-kitoblar amalga oshirilgan bo'lsa;

- boshqa talabalarning xulosalaridan farq qiladigan keys to'g'risidagi ma'lumotlar asosida o'z xulosalari chiqarilgan bo'lsa;

- ma'lumotlarni qayta ishlashda yetarli analitik usullar qo'llanilganligi;

- ma'no va mazmuni yuzasidan tuzilgan hujjatlar talablarga javob berishi;

- tahlilda keltirilgan dalillar ilgari aniqlangan muammolar, qilingan xulosalar, ishlatilgan baholar va tahlil usullariga mos kelishi.

Oliy ta'limda keys usulidan foydalanish bilan bog'liq jiddiy muammo uning butun fan bo'yicha talabalar bilimini baholashdagi rolidir. Ushbu muammoning uchta yechimi mavjud.

Birinchi variant, keys yordamida talaba egallashi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalar tizimining asosiy qoidalarini aks ettiradi degan taxminga asoslanadi, shuning uchun talaba tomonidan ushbu keys bo'yicha olingan baho uning fan bo'yicha bahosi sifatida qabul qilinishi mumkin.

Ikkinchi variant, keys usuli talaba bilimini baholashning universal usuli emas, degan fikrdan kelib chiqadi va shuning uchun uni boshqa usullar bilan to'ldirish kerak bo'ladi: og'zaki yoki yozma imtihon, yozma ish, test. Bunday holda, talabani keysni tahlil qilish natijasida olgan bahosiga ma'lum kvotalar beriladi.

Uchinchi variant boshqa baholash usullariga ko'proq berishga asoslangan. Bunday holda, keys usuli ma'lum bir fanni o'qitishda qo'llaniladigan usullardan biri hisoblanadi.

Keys usulidan foydalanib baholashning barcha turlaridan foydalanish mumkin: joriy, oraliq va yakuniy. Joriy baholash keyslarni muhokama qilish jarayonini boshqarishga yordam beradi; oraliq baholash talabaning keysni hal etishdagi muvaffaqiyatini qayd etish imkonini beradi; yakuniy esa keysni tahlil qilish va fanni o'zlashtirishda talabaning muvaffaqiyatini umumlashtiradi. Ochiq munozarada guruhlar (kichik guruhlar) ning joriy ishini baholashda raqobatni rag'batlantiruvchi jamoaviy operativ baholashdan foydalanish mumkin.

Ta'kidlash kerakki, o'qituvchining baholash ishi oqilona va asoslangan bo'lishi kerak. Talaba nafaqat keysni tahlil qilish qoidalarini, balki, uni o'qituvchi tomonidan baholash tizimini ham tushunishi kerak, ikkinchisi keys

bo'yicha ishni boshlashdan oldin tushuntirishni talab etadi. O'qituvchi baholash tizimining talaba uchun nafaqat ochiqqligi, tushunarqliligi, balki, uning adolati bo'lishi va baholashning tarbiyaviy ta'siri haqida ham unutmasligi kerak.

Demak, quyidagilarga asosiy e'tiborni berish zarur.

Keys ishlab chiqishda quyidagi jihatlarni nazarda tutish kerak:

- 1) keysni ishlab chiqishdan maqsad, ya'ni qaysi fan yoki qaysi mavzu hamda qaysi auditoriya uchun mo'ljallangan;
- 2) maqsadli guruh;
- 3) keys tuzish uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlar hajmini aniqlash;
- 4) kerak bo'ladigan ma'lumotlarni olishning mumkin bo'lgan yo'llari;
- 5) turini aniqlash;
- 6) keys qo'llanila olinadigan fanni aniqlash;
- 7) qaror qabul qilishni osonlashtirish yoki yo'llanma berish maqsadida ilova sifatida qo'shimcha ma'lumot berish.

Shu bilan birga keysning tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin:

- 1) kirish
- 2) umumiy ma'lumotlar
- 3) muammoning ta'rifi
- 4) xulosa
- 5) ilova

Agar keysda ma'lum bir konkret misol olingan bo'lsa, masalan, tashkilot, ishlab chiqarish korxonasi, ma'lum bir tabiat hududi va hokazo, bunda aynan o'sha joyga borib ham keysdagi vaziyatni tasvirlash mumkin.

Keysning bajarilishi shart bo'lgan elementlari:

- keysning nomi
- keys asosiy g'oyasining qisqacha tavsifi
- keysning maqsadi, ya'ni, bu keys orqali talab nimani o'rganadi

- o'quv dasturida keysning o'rni
- muammoni tavsiflash va keys materialini o'rganish bo'yicha yo'riqnoma

- yechilishi kerak bo'lgan masalalar ketma-ketligi
- muhokama qilish uchun tegishli savollar
- keys bilan ishlashda natijalarni rasmiylashtirish talablari va qoidalari
- vaziyatni tavsiflash
- ma'lumotlar
- qo'shimcha ma'lumotlarga havolalar (mustaqil o'rganish uchun)

Keysning qo'shimcha elementlari tyutolar uchun tayyorlanadi:

- keysning yozilgan sanasi
- ta'lim berish jarayonida tegishli ma'lumotlarni ishlatish bo'yicha nashr etish ruxsatnomasi

- maqsadli guruhlarining tavsifi (ta'lim oluvchining tayyrogarlik darajasi)

- muammo tahlili va fikrlash mantig'i
- muhokama qilish uchun savollarga javoblar
- epilog (keysda ko'riladigan vaziyat rivojlanishi)
- sharhlar (keysni qo'llash tajribasi)
- qo'shimcha ma'lumotlarga havolalar (tyutorning mustaqil o'rganishi uchun).

Keysdagi matndan tashqari materiallar:

- ilovalar (sxema, grafik, jadval, rasmlar)
- muhokamada slaydlarni qo'llash
- audio va video materiallar (intervyu, ma'lum joyda olingan video va boshqalar)

- keys qahramonlarini auditoriyaga taklif qilish yoki tashkilotlarga borish

- kompyuterda simulyatsiyalarni amalga oshirish

Keys uchun ma'lumotlar manbalari:

- tashkilot tarixi
- arxivlar
- ommaviy axborot vositalaridagi ma'lumotlar
- loyihalar yuzasidan qilingan hisobotlar
- maxsus adabiyotlardagi tahliliy maqolalar
- tashkilot xodimlari va rahbarlari bilan intervyu

Ma'lum bir vaziyatlarni havola etish turlari har xil bo'ladi:

- klassik kengaytirilgan (50 sahifagacha)
- qisqartirilgan
- video material
- hayotdan olingan vaziyat
- ishtirokchilar tomonidan taklif etilgan vaziyat
- dialog vaqtida vujudga kelgan vaziyat
- ma'lum vaziyatda qabul qilingan qarorni tahlil qilish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib tayyorlangan keyslar talabalarni fanga qiziqtirish va ta'lim berish jarayonini osonlashtiradi.

III. OLIY TA'LIMDA KIMYO FANINI O'QITISHDA KEYS USULI IMKONIYATLARI

Ma'lumki, ko'pgina fanlarda bilim, ko'nikma va malakalarga erishish uchun keys usuli qo'llaniladi. Bular asosan ijtimoiy fanlar hisoblanadi. Ilk bor tibbiyot fanlarini o'qitishda 1970-yillarda McMaster universitetining tibbiyot maktabi keys texnologiyasini dars jarayonida qo'llay boshlagan. Biznes keyslaridan farqli ravishda McMaster universitetida yosh tibbiyot xodimlarini o'qitishda yangi uslub – muammoli vaziyat usuli yaratilgan. Bu usul talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, ularga murabbiy biriktirishdan iborat bo'lgan. Talabalarga kasalning kasallik varaqasidan juda kam ma'lumot berilgan va bu ma'lumotlarga asoslanib talabalar qanday ma'lumotlarni bilishi, nimani bilmasligi va nimani topishini aniqlashi lozim bo'lgan. Shundan so'ng talabalar javobni topish uchun adabiyotlardan ma'lumotlarni izlanishgan. Keyingi darsda talabalar adabiyotdan topgan ma'lumotlari bilan fikr almashingan, bunda murabbiy ularga qo'shimcha ma'lumot bergan. Fikrlari bilan almashingandan so'ng talabalar yana adabiyot bilan ishlashga yuborilgan. Uchinchi marta uchrashgan vaqtda talabalar keys yuzasidan oxirgi xulosaga kelishgan va murabbiydan boshqa keysni qabul qilib olishgan [25].

1990-yillarning o'rtalaridan boshlab Delaware universiteti muammoli vaziyatlar usulini yosh mutaxassis talabalarni o'qitishda tadbiq qilgan. Buffalo universiteti pedagoglari esa jiddiy tanlash asosida tabiiy fanlarda keyslarni ishlab chiqib qo'llay boshlagan. Buffalo universitetining seminar, trening va konferensiya o'tkazish sa'y harakatlari tufayli dunyo bo'yicha

minglab fakultetlarda keys-stadi ishlab chiqilib, dars jarayonida qo'llashmoqda. Hozirda bu universitet qoshidagi tabiiy fanlarni o'qitishda keys-stadi milliy markazi veb sahifasida turli fanlarni qamrab oladigan 400 ga yaqin keyslar mavjud.

S.F.Herreid va boshqalarning tadqiqotlariga ko'ra keys usulini qo'llaydigan o'qituvchilarning 90% ni biologiya o'qituvchilari tashkil etsa, qolgan qismini fizika, geologiya, muhandislik va albatta, kimyo o'qituvchilari ekan [26,27]. Kimyo fanida keys-stadining juda kam qo'llanilishini bazaviy, ya'ni, umumiy kimyodan keyslar ishlab chiqish qiyinligi, qonuniyatlarni tushuntirishda keyslarni tadbiq qilish imkoniyatlarining keng emasligi bilan izohlash mumkin.

Kimyo fanida keys usulini jadal qo'llash 2000-yillardan buyon boshlangan. Hozirgi vaqtgacha kimyo va boshqa tabiiy fanlardan keys namunalarini bir necha internet resurslaridan topish mumkin [28-30]. Ular orasida kimyo fanidan keyslarni oliy ta'lim muassasalari miqyosida birinchi marta qo'llagan va keyslar bazasini shakllantirayotgan ilk tashkilotlardan Buffalo universiteti hisoblanadi.

Shuni aytish joizki, kimyo fanidan keys ishlab chiqishning o'ziga xos qiyinchiliklari mavjud. Ammo, bu fandan keys ishlab chiqishda ko'pgina fanlarning kesishuvidan misollarni olish mumkin, masalan, ekologiya, ishlab chiqarish, farmasevtika, tibbiyot va malakatimizda tibbiyotning tarkibiga kiradigan tor doiradagi sud tibbiyoti yoki chet elda keng doiradagi "forensic" ilmini olish mumkin. Bularni barchasini qamrab oladigan fan analitik kimyo yoki tahlil usullari hisoblanadi.

Keys stadi bo'yicha ilk ishlardan keysga qo'yilgan talablarni quyidagicha aytish mumkin:

- kimyoni o'qitishda talabalarni mustaqil ishlashga ruhlantirish;

- zamonaviy davrda tez o'zgaradigan malakalarni rivojlantirishga ruhlantirish va boshqalar.

Keys usulini qo'llashdagi to'siqlar va imkoniyatlar

Odatda har qanday yangilik kabi bu usul ham ma'lum qarshilikka uchrashi tabiiydir. Bu oliy ta'lim muassasalari auditoriyasi hamda malaka oshirish tizimidir. Qarshilik sifatida keys usulini qo'llashda uni pedagogik amaliyotda usul sifatida rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan omillar hisoblanadi.


Keys usulini mamlakatimiz oliy ta'limida joriy etish bo'yicha muammo va to'siqlar bo'yicha mualliflar [20] da o'z fikrlarini bayon etgan. Keys usulining O'zbekiston oliy ta'limi tizimida tutgan o'rni haqida gapiradigan bo'lsak yetarli darajada rivojlanmagan deb aytish mumkin. Chunki, respublika va chet el ilmiy adabiyotlarida keys usuliga va uning amaliyotda qo'llanganligi to'g'risida mamlakatimiz professor-o'qituvchilar va olimlarining sanoqli ilmiy maqolalari uchraydi. To'siqlarni sxematik tarzda ifodalash mumkin.

Ta'lim jarayoni amaliyotiga keys usulini joriy qilishda avvalambor uchta muhim muammoni yechish talab etiladi:

Birinchidan, keys ishlab chiqadigan hamda bu usulini dars jarayonida qo'llaydigan o'qituvchilar uchun o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlash masalasi.

Ikkinchidan, o'qituvchilarni yangi usulni qo'llash borasida psixologik to'siqlarni yengib o'tishlari uchun malakasini oshirish.

Uchinchidan, ta'lim muassasalarida ayniqsa OTMlarda asosiy fanlardan keyslar bankini shakllantirish va boshqa OTMlar bilan ularni almashinish jarayonini yo'lga qo'yish.



1-rasm. Ta'lim jarayoniga keys usulini tadbqiq qilishga xalaqit beradigan to'siqlar

Eng asosiy kamchiliklardan biri yangi o'qitish usullari to'g'risida sifatli adabiyotlarning yetishmovchiligi hisoblanadi. Ko'pchilik uchun chet el adabiyotlarini original variantida o'qib tushunish qiyinlik qiladi.

Shuningdek, interaktiv usullarni akademik guruhlarda qo'llash qiyinchilik tug'diradi, sababi bu usullarni tushunmaydigan talabalar va faolligi past talabalarning ko'pligidir. Amaliyotda darslarda usulni qo'llaganimizda passiv talabalar aktiv talabalarning "orqasiga yashirinishi" kuzatildi. Buni oldini olish maqsadida ma'ruza qiladigan talabalarning ro'yxatini tez-tez tekshirib turish, talabalar guruhchalaridagi a'zolarini rotatsiya, ya'ni, almashtirib turish kerak.

Shuni nazarda tutish kerakki, keys usuli nafaqat ta'limning jarayonini modernizatsiyalashda, balki, metodik modelini ham yangilshdagina samarali ta'sir etadi. Bu usulni ta'lim jarayoniga nafaqat joriy qilish va ishlab chiqish, shu bilan birga talabalarni o'qitish va tarbiya konsepsiyasini, o'quv va tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish, nazorat va baholash tizimi va hatto bitiruvchilarni taqsimlashni ham o'zgartirishni anglatadi.

Yana bir muammo sifatida yangi usulni qo'llaydigan o'qituvchi an'anaviy usulning tarafdorlari va kollektiv oldida noqulay vaziyatda qolishi mumkinligini ko'rsatish lozim.

Fikrimizcha, hozirda usulni ta'lim jarayoniga joriy qilish bo'yicha o'ziga xos muammolar mavjud. Birinchidan ta'limda an'ana bo'lib qolgan subyekt-obyekt munosabatidir, keys usulida esa ta'lim subyekt-subyekt o'zaro munosabatga asoslangan. O'qituvchi va talaba munosabatlari o'zaro teng huquqligi bilan ajralib turishi va rivojlangan bo'lishiga qaramay axborot texnologiyalari bir tomonlama, ya'ni, o'qituvchidan talabaga yo'naltirilganligi ijodiy faoliyatga to'sqinlik qilar edi.

Bundan tashqari o'qituvchining motivlarini o'zgartish bilan bog'liq qiyinchiliklar. Bunda o'qituvchi ochiqligi, ijod qilish erkinligi va noan'anaviyligi bilan ajralib turuvchi yangi faoliyat turiga o'tishi kerak bo'ladi. Ammo, bu keys usulini joriy qilishda uncha xavfli bo'lmagan qiyinchilik hisoblanadi. Sababi o'qituvchi keysning imkoniyatlarini o'rganganligi bilan uning o'z intellektual potensialini yangilashini tushunib yetadi.

Obyektiv va subyektiv to'siqlar sifatida mental sabablarni ham ajratish mumkin. Bunda mentallikning shaxsiy komponentlari bilan birga o'qituvchining kasbiy komponentlari ham muhim ahamiyatga ega. Bu usulni joriy qilishda o'qituvchi qiyinchiliklarga duch kelishiga sabab uning konservatorligi (an'analarga sodiqligi), dinamik auditoriya bilan ishlashida talabalarni nazorat qilish jilovini qo'ldan boy berishdan qo'rqishi hisoblanadi. Bundan tashqari talabalar bilan bir xil maqomda demokratik munosabat o'rnatishni o'qituvchi tomonidan qabul qila olomasligi ham misol bo'ladi.

Endi keys usulini ta'lim jarayoniga tadbiq qilish bo'yicha imkoniyatlar omilini tahlil qilsak. Omil deganda odatda biror-bir voqea yoki jarayonni yurituvchi kuch tushunilib, uning xarakter va alohida belgilarini aniqlaydi.

Hozirda keys usulini amaliyotga joriy qilish bo'yicha imkoniyatlar kengaymoqda. Joriy etish bo'yicha omillar axborot texnologiyalari rivojlanishi evaziga kelib chiqayotgan to'siqlarni yengib bormoqda. Omillar turli xil bo'lib, ularning orasidan sivilizatsion, milliy, ta'limiy va shaxsiy omillarni ajratish mumkin.



2-rasm. Keys usulini rivojlantiruvchi ba'zi omillar tavsifi

Ma'lum bir jamiyatning milliy omillari. Ma'lumki, turli davlatlarda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy jarayonlar va o'zgarishlar turli xil kechadi. Bularning hammasi mental omilga bevosita bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida aholining yosh nuqtai-nazaridan ijtimoiy tuzilishiga ham bog'liq hisoblanadi. Ta'lim oluvchi keys usuli yordamida ta'lim olish jarayoni yoki malaka oshirish vaqtida zamonaviy faoliyat usullari va uslublarini o'rganmas ekan zamonaviy vaqtda faoliyat ko'rsata olishi qiyin bo'ladi.

Keys usulining amaliy rivojlanishi nuqtai-nazaridan ta'lim omillarining ulushi sezilarli darajada yuqoridir. Ta'limni zamonaviylashtirishga bo'lgan ehtiyoj ta'lim usullari va didaktikasini keskin o'zgartirishni talab etadi. Bizning ta'lim tizimimizning o'ziga xos yutuqlari va afzalliklari mavjud, ammo, shu bilan birga kamchiliklari ham mavjud bo'lib ularga amaliyot bilan kuchsiz bog'liqligi, ko'nikma va malakaga kamroq yo'nalib asosan bilimga yo'nalganligi misol bo'ladi.

Talim texnologiyalarining yangilanishi kundan-kunga amalga oshib bormoqda. Talimning interaktivligi kuchayib bormoqda va u turli xil treninglar yuzasidan adabiyotlarning ko'payishi, e'tiborni va xotirani rivojlantirish, o'qish tezligini oshirish, tahliliy qobiliyatini shakllantirish va hokazolarda namoyon bo'ladi. An'anaviy didaktikani inkor etadigan va ta'lim maydonini tashkil etishda yangi uslublarni talab etadigan ta'lim texnologiyalari muhim rol o'ynaydi.

Keys usulining amaliyotga tadbiiq etilishida kompyuter texnologiyalari va ta'limning distansion usullari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda usul ta'lim axborotlarini zichlashtirish, hayot bilan bog'liqligini kuchaytirish va ta'lim jarayonining amaliy ta'sirini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'limning dolzarb muammolaridan biri bu talabalarning tarbiyaviy jihatida hisoblanadi, chunki, aynan shu yoshda shaxs sifatida asosiy xarakteristikalar shakllana boshlaydi. Bugungi kunda ko'pchilik davlatlarda zamonaviy oliy ta'lim muassasalarining tarbiyaviy funksiyasi susaygan. Aslida esa aynan tarbiyaviy xarakteristika shaxsning shakllanishi, hayotni idrok etishi, dunyoqarash, fikrlash, iroda, his tuyg'u va motivatsiyasini rivojlantiruvchi hisoblanadi. Olimlarning fikricha eski sovet tarbiyaviy tizimi buzilganiga ancha bo'lgan bo'lsa ham uning zamonaviy tarbiya tizimiga ta'siri haligacha qolganligini aytishmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy tarbiya tizimiga qator talablar qo'yilgan:

- talabalarning yuqori darajada aqliy, hayotiy, kasbiy va fuqarolik jihatdan aktiv bo'lishi kabi jihatlarni shakllantirish hamda doimiy ravishda rivojlantirib borish;

- motivlantiruvchi va irodaviy kuchini rivojlantirish orqali qiyinchiliklarni yenga olish va mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish;

- o'zini-o'zi boshqarish metod va usullarini bilish, o'zini rivojlantirish va tarbiyalash, uzluksiz ta'lim olish strategiyasini ishlab aniqlab olish;

- axloqni, avvalambor kasbiy axloqni tarbiyalash, mehnatsevarlikni, shaxsga va jamiyatga bo'lgan hurmat munosabatini shakllantirish;

- kommunikativ qobiliyatlarni, ochiqlikni, boshqalar bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatish, ishxonada mo'tadil psixologik atmosferani shakllantirish, jamiyatning turli ijtimoiy guruhlar bilan munosabatni o'rnatish qobiliyatini rivojlantirish;

- madaniy boyliklarni o'rganishga doimiy ravishda intilish, madaniy hissiy tuyg'ular rivojlantirish;


- tarbiyaviy tizimning butunligi, biror bir g'oyaga qaratilmaganligi, samaradorligi va piragmatikligi hamda ta'lim bilan o'ziga xos bog'liqligi.

Shuni ta'kidlash kerakki, asta-sekin shakllanayotgan tarbiya tizimi tashkiliy-administrativ cheklovlarni hamda oliy ta'lim muassasalarining tegishli bo'limlari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning keskin o'zgartirishi kerakligini anglatadi.

Ammo, tarbiyaviy tizim nafaqat jamiyatda, balki, ta'lim jarayonida ham an'anaviy pedagogika yordamida ta'lim oluvchilarga shaxsiyatni shakllantirishda keng ishtirok etadi.

Ko'pgina tadqiqotlar natijasida olimlar keys usulini faqat o'qitish usuli sifatida qaralishi kerak emas deb hisoblashmoqda. U zamonaviy sinkret tarbiyaviy-ta'limiy usul sifatida bo'lib, o'zida ta'lim va tarbiyani chambarchas bog'lagan. Bunda keys usulining tarbiyaviy ahamiyati hali

oxirigacha o'rganilmagan. Shaxsning qobiliyatlarini shakllantirish nuqtai-nazaridan tarbiyaviy ahamiyatini qaraladigan bo'lsa. Agar tahlilni osonlashtiriladigan bo'lsa va shaxsni shakllantiruvchi asosiy yo'nalishlarini ko'rilsa: kasbiy, aqliy, ma'naviy va motivlashtiruvchi-irodaviylardan faqat uchtasini ajratiladigan bo'lsa, keys usulining shaxsga ta'sirini sxematik tarzda quyidagicha ifodalash mumkin.



3-rasm. Keys usulining shaxsni shakllantirishdagi o'rni

Sxemadan ko'rinib turibdiki, kasbiy tarbiyada keys usuli mehnatsevarlik, amaliy bilim va ko'nikmani hamda kasbiy faoliyat sohasida raqobatbardoshlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Kichik guruhlarda ishlash va guruhda muhokama jarayonida talabalar ko'proq bilm olish hamda o'z fikrlarini asoslash va himoya qilishga majbur qiladi.

Ko'rinib turibdiki, aqliy rivojlanish gapirish, eshitish qobiliyati, eslab qolish, vaziyatni tahlil qilish, turli xildagi ma'lumotlarni tahlil qilish va uni qayta ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishini ko'rish mumkin. Doimiy shaxsiy

rivojlanish sababli keys usulini qo'llash natijasida aqliy rivojlanish amalga oshadi.

Axloqiy rivojlanish esa talaba aktivligini stimallashtirish, to'yingan va emotsional faoliyat natijasida zavqlanish, o'zini shaxs sifatida anglash, hamkorlik qilish malakasini rivojlantirish kabilar kiradi.

Motivatsion-irodaviy rivojlanish esa irodani mustahkamlash, ayniqsa, o'z fikrini asoslash va ilgari surish hamda boshqalarni fikrini tan olishda amalga oshirishda mos keladi. Shu bilan birga maqsadni qo'yishda oldindan bilish qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Keys usulining talaba shaxsiyatini shakllantirishdagi muhim rollaridan biri bu motiv va muhim ahamiyatga ega bo'lgan narsalarni shakllantirishda asos bo'lishidir.

Shu bilan birga o'quv-tarbiyaviy jarayondagi ijtimoiy o'zgarishlarni ham inobatga olish zarur. Bunda muhim bo'lgan omillardan biri oliy ta'limda professor-o'qituvchilar avlodining o'zgarishidir. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalariga o'qituvchilar sifatida ikki minginchi yillarda shaxs sifatida shakllangan yoshlar kirib kelmoqda. Bu avlodning dunyoqarashi umuman boshqacha bo'lib, demokratik qarashlar ularda o'z ta'sirini ko'rsatgan. Yosh o'qituvchilarning miyasida oliy ta'lim tizimi islohotlarga qizg'in uchragan paytda ta'lim olgan bo'lib, ular an'anaviy ta'lim tizimi, metodikasi va samarasiz didaktikasiga nisbatan o'ziga xos yomon munosabat shakllangan. Bunda o'qituvchilik malakasi bo'lmaganligi sababli yosh mutaxassis yangi metodlarni qidirishni boshlaydi.

Bundan tashqari yosh mutaxassislar uchun pragmatizm xos bo'lib, yuqori hayotiy aktivlik, qo'shimcha pul topish maqsadida turli mehnat faoliyatini amalga oshiradi: firmalarda ishlash, abituriyentlarga qo'shimcha dars berish va hokazo. Albatta, zamonaviy o'qituvchi eski avlod o'qituvchilaridan farqali o'laroq hayotda amaliy jihatdan ko'proq maktab ko'rgan. U uchun doim vaqt yetishmaydi. Bu uni shaxsiy o'qituvchilik

intellektual kapitalini shakllantirishga imkon beradigan metodlarni izlashga majbur qiladi, bunda u auditoriyada o'quv jarayonini o'zi va talabalar uchun maksimal darajada osonlashtirish bilan bir vaqtning o'zida ta'lim oluvchilar uchun bilim, ko'nikma va malaka olishda samarali bo'lishiga harakat qiladi. Liberal dunyoqarash ham albatta o'zini ta'sirini ko'rsatadi, bunda yosh o'qituvchi eski subyekt-obyekt tizimi munosabatlarini umuman yangi bo'lgan subyekt- subyekt munosabatlariga o'zgartiradi.

Albatta, hozirgi talabalar ham ilgarigi talabalardan farq qiladi. Zamonaviy talaba hozirgi qiyin vaqtdagi jamiyatda yashaydi. U avvalgi talabaga o'xshamaydi, u nafaqat o'zining o'qishi va ehtiyojlarini qondirishi uchun, balki, o'z oila a'zolarini boqish uchun o'qishdan tashqari ishlaydi. Unga ham vaqt yetishmaydi. Shu bilan birga u nafaqt tezroq ta'lim olishni, balki, kasbga ega bo'lish va bu orqali tezroq kuchli raqobat bo'lgan mehnat bozorida raqobatbardosh kadr bo'lishni xoxlaydi. Keys usuli esa bu kabi talaba uchun ayni muddaodir.

Shuni unutmaslik kerakki, zamonaviy talabalar – qiziqish va shov-shuvlarga asoslangan hamda majburlamaydigan axborot asri jamiyati, televideniye, kompyuter o'yinlari, turli xil tokshoularning avlodidir. An'anaviy ma'ruza bu kabi zamonaviy talabalarning qabul qilishi uchun qiyindir. Shu sababli bu kabi muammoni hal qilish uchun keys usulini qo'llash ma'lumotlarni qabul qilishni osonlashtiradi.

Shunga ko'ra biz keys usulini o'quv jarayoniga joriy qilish va uni rivojlantirishning strategik tamoyillarini shakllantirish uchun quyidagilarga e'tibor berishimiz zarur:

1. Keys usulini ish beruvchilar va zamonaviy ish bozori talabalaridan kelib chiqib o'quv dasturlariga imkon qadar tezroq kiritilishi kerak.

2. Kasbiy malaka oshirish dasturlarini amalga oshirishda uzluksiz kasbiy ta'lim tizimida keys usulini faol qo'llash.

3. Keys usulini majburiy bo'lgan bilimlarni beradigan an'anaviy o'qitish usullari bilan birga boshqa o'quv usullari bilan hamjihatlikda qo'llanilishi kerak. Vaziyatli o'qitish mavjud bilimlarni dinamik vaziyatda izlash va foydalanishni o'rgatadi, moslashuvchanlikni, dialektik fikrlashni rivojlantiradi; haddan tashqari vaziyatni tahlil qilish ishtiyoqi kelajakdagi mutaxassisning zarur "me'yoriy bilimlar" isiz bo'lishiga, uning barcha bilimlari ma'lum bir uslubiy tamoyil yoki tizimsiz ko'plab vaziyatlarni bilishga olib keladi.

4. Keys usulini qo'llash metodologik jihatdan asoslantirilgan va ta'minlangan bo'lishi kerak. Bu butun o'quv kursi bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish darajasida ham, individual o'qituvchi tomonidan rejalashtirish darajasida ham zarur. Mutaxassislar o'quv fanlari va ularning bo'limlarini ekspert baholashlari talab etiladi, bunda keys usulidan foydalanish an'anaviy o'qitish texnologiyalariga qaraganda qaysi joyda ancha yuqori samara berishini ko'rsatishlari lozim. Ushbu masalalar metodik kengashlarda muhokama mavzusi bo'lishi va o'qituvchilar uchun malaka oshirish maqsadi bo'lishi kerak.

Keys usulini qo'llaydigan o'qituvchining roli

Keys usuli nazariy bilimlarni amaliy masalalarni yechishda qo'llaniladi. Ammo, hayotiy va ta'limda ko'riladigan amaliy vaziyatlar orasida ma'lum farqlar mavjud. O'qituvchining ta'lim berish jarayonida haddan ziyod ishtirok etishi hamda past aktivlik namoyish qilishi yoki ma'lum o'ziga xos rolda ishtirok etishi talabalar tomonidan taklif etadigan yechimlarini ko'rib chiqish va muhokama etishini cheklab qo'yishi mumkin. Ajratilgan vaqt, ta'lim olayotgan guruh katta-kichikligi kabilar cheklovlarga misol bo'ladi.

Keysning sifatiga birinchi navbatda o'qituvchi javobgar hisoblanadi. Keysning sifatini yaxshilash uchun o'qituvchi tashkilot rahbari bilan uchrashishi va uchrashuv natijasida muammoli vaziyatni ishlab chiqishi mumkin. Buni o'qituvchi bilan birga borgan va intervyuda ishtirok etgan talabalarga ham aytish mumkin. Intervyu davomida yozib olgan ma'lumotlarga asoslanib talabalar keysning qoralama variantini tayyorlash imkoniga ega. Shu bilan birga ta'limiy muammoli vaziyatlar talabalarning ishlab chiqarish amaliyoti davrida yoki loyiha va diplom ishi yozish vaqtida to'plangan ma'lumotlar asosida ham yozilishi mumkin.

Birinchi navbatda keysning markaziy muammolari va savollarini tashkil etadigan ma'lumotlar (masalan, tashkilotni strategik boshqarish, moliyaviy muammolar, ishchilar bilan bog'liq muammolar, tashqi omillar va hokazo) ni aniqlab olish kerak. So'ng keyingi bosqichda keys matnini shakllantirishga aniq ma'lumotlarni ajratib olish.

Intervyu o'tkazishdan oldin muammoli vaziyatning tuzilishini aniqlab olish tavsiya etiladi. Ma'lumot turli ketma-ketlikda keltirilishi mumkin, masalan, xronologik – intervyu yoki ma'lum bir model yoki sxema asosida. Muhim vazifalardan biri uni tuzilishini va qayta tashkil etilishini ta'minlash hisoblanadi. Faktlar rahbarlarni baholash, fikrlarga ixtibos keltirish va boshqalar bilan boyitilishi mumkin. Keys materiallariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ko'rilayotgan tashkilotning asosiy ish faoliyat va sohasi;
- o'rganilgan malakaning qaysi turdagi tashkilotga qo'llanila olishi;
- talabalar tomonidan yechim topa oladigan masalalar;
- mutaxassisning shaxsiy xususiyatlari, ko'nikmalari va faoliyat turlariga qo'yiladigan talablar;
- kasbiy vazifalari ro'yxati;
- bilimga qo'yiladigan talablar.

Vaziyat to'g'risida keng qamrovli ma'lumot yetkazish uchun quyidgilar kerak bo'ladi:

- subyekt to'g'risida ma'lumot (vaziyatda asosiy rol o'ynaydigan yoki markaziy masala bo'lgan tashkilot, odam, guruh). Subyektning tavsiflash turli darajada bo'lishi mumkin, bular maqsad va strategiya darajasida yoki uning faoliyatidagi aniq ma'lumotlar darajasida;

- asosiy "qahramon" bilan bevosita bog'liq bo'lgan hamkorlar, raqobatchilar yoki boshqa subyektlar to'g'risida ma'lumot;

- ma'lum bir shart-sharoitda kechayotgan vaziyat to'g'risida ma'lumot.

O'qituvchi keyslarni tayyorlashda quyidagilarga e'tibor berishi kerak. Birinchi bo'lib keysning ta'lim tizimi maqsadlaridagi o'rnini aniqlash lozim. So'ng keys mavzusiga oid institutsional tizimni topish kerak. Keyingi bosqichda yechimni talab qiladigan vaziyat modelini tanlash yoki yaratish kerak bo'ladi. So'ng e'tiborni bevosita muammoli vaziyat tavsifini yaratish, hamda qo'shimcha ma'lumotlar yig'ish va yakuniy matnni tayyorlashga qaratish kerak. Shu bilan birga berilgan materialning tushunarililigini ta'minlash lozim, bunda vaziyatni tavsiflashda noilmiy va oddiy tavsiflashdan foydalanmaslik kerak. Oxirida keysning prezentatsiyasi va muhokamasini tashkil qilish zarur.

Dars jarayonini tashkil etishda keys bilan ishlash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqich – birgalikdagi faoliyat (guruhda ishlash) ga jalb qilish. Bu bosqichning asosiy maqsadi birgalikdagi faoliyatga motivlashtirish va ishtirokchilarni muhokama qilish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash. Bunda keys matnini talabalarga darsdan oldin mustaqil tayyorlash va savollarga javob yozish uchun tarqatish mumkin.

Ikkinchi bosqich – birgalikdagi faoliyatni tashkil etish. Asosiy maqsad muammoni yechish faoliyatini tashkil etishdir. Bu faoliyat kichik guruhlarda

yoki individual tashkil qilinishi mumkin. Tinglovchilar o'qituvchi tomonidan belgilangan vaqtda savollarga javob topish uchun kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhda (boshqa guruhdan mustaqil ravishda) individual javoblar asosida prezentatsiya tayyorlanadi. Javoblarni prezentatsiya qilish uchun spiker tayinlanadi yoki tanlanadi. Agar keys yetarli darajada yaxshi tuzilgan bo'lsa, guruhlarining javoblari bir-biriga o'xshamasligi kerak. Spikerlar guruhning prezentatsiyasini amalga oshirishadi va savollarga javob beradi. Ma'ruza kurs yoki fanning nazariy jihatlariga asoslangan holda vaziyatni tavsiflab berishi kerak bo'ladi. Bunda vaziyatning yechimi, prezentatsiya texnikasi va axborot-kommunikatsiya tizimlaridan foydalanish samaradorligi inobatga olinadi. O'qituvchi umumiy diskussiyani tashkil qiladi va yo'naltiradi.

Oxirgi bosqich – birgalikdagi faoliyat analizi va refleksiyasi. Asosiy maqsad, keys bilan ishlaganda ta'lim va o'quv natijalarini namoyon qilishdir. Undan tashqari bu bosqichda dars jarayonini samarali tashkil etish o'rganiladi va keyingi ish uchun maqsad qo'yiladi. Bunda o'qituvchining faoliyati quyidagicha bo'lishi lozim: diskussiyani yakunlaydi; barcha guruhlar ishini va keys-stadi muhokama jarayonini analiz qilib, vaziyatning haqiqatda ro'y berish ketma-ketligini aytib beradi va sharhlaydi, hamda yakunlaydi.

Hozirga kunda qo'llanmasi va tayyor vaziyatlari mavjud har bir o'qituvchi ta'lim jarayonida keys-stadini qo'llashi mumkin. Bunda fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda keysni tayyorlash va qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qituvchi tomonidan mini-keysni ta'lim jarayonida qo'llash talabalarni ijodiy yondashishga, mustaqil ravishda xulosa qilish va umumlashtirish hamda o'rganilayotgan mavzuga e'tiborini qaratishga imkon beradi. Bu turdagi keysni tahlil qilishda tinglovchiga bevosita savol berib, ularni muhokamaga jalb qilish mumkin. Bu usuldan keysni tahlil qilayotgan

har bir talabaning fikrini eshitish uchun foydalanib, muhokamaga aktiv qatnashayotgan va umuman qatnashmayotgan talabalarni jalb qilish imkoniyati vujudga keladi.

Keys usulining pedagogik salohiyati an'anaviy o'qitish usullarining pedagogik salohiyatiga qaraganda ancha katta. Keys usulida munozaralar, bahs va dalillar keltirilishining mavjudligi muhokamada ishtirokchilarni aloqa normalari va qoidalariga rioya qilishga o'rgatadi. O'qituvchi butun o'quv jarayoni davomida yetarlicha hissiyotga ega bo'lishi, nizolarni hal qilishi va oldini olish, hamkorlik va raqobat muhitini yaratishi, talabalarning shaxsiy huquqlariga rioya etilishini ta'minlashi kerak.

O'qitish amaliyotida keys usulini qo'llaydigan o'qituvchining samaradorligi bir qator printsiplarni amalga oshirishiga bog'liq:

- didaktik usullarning xilma-xilligi va samaradorligi printsiipi, bu didaktikani, uning printsiplari, uslub va usullarini, ularni o'quv jarayonida maqsadli ishlatishni o'z ichiga oladi;

- talabalarni o'quv faoliyatida sherik sifatida tan olish, vaziyatlarni birgalikda va jamoaviy muhokama qilishga asoslangan sheriklik, talabalar bilan hamkorlik tamoyili;

- o'qituvchining rolini bilimlarni "chaynab beruvchi" dan uzatish va ularni chiqarish jarayonini tashkil etishga o'tkazish printsiipi – o'qituvchining bilimlarning yagona "egasi" sifatidagi rolini kamaytirish, talabaning ilmiy ma'lumot olamini o'rganishida yordam beradigan mutaxassis va maslahatchi rolini oshirish;

- pedagogika fanining yutuqlarini, hamkasblari tomonidan to'plangan tajribani psixologik va pedagogik jihatdan asoslash, nafaqat ta'lim, balki, ta'lim maqsadlarini shakllantirish tamoyili, keys uslubini tatbiq etgan o'qituvchini klassik o'qitish usullaridan foydalanadigan o'qituvchidan sezilarli darajada ajratib turadi;

- keys va unga asoslangan o'ziga xos noyob ijodiy mahsulotga aylantirishni o'z ichiga oladigan ijodkorlik tamoyilidir – keys usuli keysni noyob intellektual mahsulot sifatida yaratish, o'quv jarayonini loyihalash, o'qitish texnologiyasini takomillashtirish, ijodkorlik bilan shug'ullanishni qamrab olgan holda ijodkorlik maydonini sezilarli darajada kengaytiradi. Talabalar, o'quv jarayonida ijodiy improvizatsiya rolini kuchaytiradi va boshqalar.

- pragmatizm tamoyili, muayyan vaziyatning imkoniyatlarini aniq belgilashga, talabalarni vaziyatni tahlil qilish va unda qanday hatti-harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirish nuqtai nazaridan rejalashtirish.

Keys usulidan foydalanishda o'qituvchining faoliyati ikkita bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqich – bu tadqiqot, ishlab chiqish va uslubiy qismlardan tashkil topgan holda keys va uni tahlil qilish uchun savollar yaratish bo'yicha murakkab darsdan tashqari ijodiy ishdur. Keysni tahlil qilish va muhokamaga tayyorgarlik jarayonida talabalarning mustaqil ishlarini uslubiy ta'minotini ishlab chiqish, shuningdek, uni tahlil qilish bo'yicha bo'lajak darsni uslubiy jihatdan ta'minlash e'tiborga loyiqdir.

Ikkinchi bosqich keysni muhokama qilishda o'qituvchining auditoriyadagi faollikni o'z ichiga oladi, bunda kirish va yakuniy mulohazalar beradi, muhokamani yoki taqdimotni tashkil qiladi, auditoriyada ishbilarmonlik ruhini qo'llab-quvvatlaydi va talabalarning vaziyatni tahlil qilishdagi hissasini baholaydi.

Keysni o'rganish va ushbu tahlilni auditoriyada taqdim etishning samarali shaklini izlash mashg'ulotning eng muhim bosqichini anglatadi. Darsning (munozara yoki taqdimot) boshlanishi bu vaziyatning butunlay o'qituvchining qo'lida bo'lgan paytdir. Butun darsning umumiy ohangi, qiziqishi va yo'nalishi keysni muhokama qilishni qanday boshlashiga bog'liq.

Samarali bo'lishi uchun mashg'ulot munozarasi strategiyasi puxta tayyorlanib, strukturalangan, vaqt ko'rsatilgan va nazorat ostida bo'lishi kerak.

Odatda munozaralar o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan qiziqtiruvchi savollarni berish bilan boshlanadi. O'qituvchi muhokamani ta'lim maqsadlariga erishishga yo'naltirib tinglovchilarning qo'yilgan savollarga mumkin bo'lgan munosabatini oldindan bilishga harakat qilishi kerak.

Odatda, o'qituvchi tomonidan keyslarni muhokama qilish jarayonida barcha munozaralarda to'rtta asosiy savol shakllantiriladi:

Nima uchun vaziyat dilemma kabi ko'rinadi?

Kim qaror qabul qilgan?

Qaror qabul qiluvchining qanday qaror variantlari bo'lgan?

U nima qilishi kerak edi?

Ushbu savollarga javoblarni hisobga olgan holda, o'qituvchi muhokamaning rivojlanishini oldindan aytib berishi va uning yo'nalishini moslashtirishi kerak, shu savollarni qo'yib, muhokamani yo'naltirmoqchi bo'lgan fikrlarini ta'kidlab o'tishi kerak. Shu bilan birga, talabalar oldindan kutilmagan nuqtai nazarni va fikrlarni ifoda eta olishlariga tayyor bo'lish kerak.

Keysni ishlash va uning natijasini baholash

Shuni ta'kidlash lozimki, o'qituvchi darslarini keys asosida o'tkazadigan bo'lsa, u natijalarni qanday qilib belgilab borishi kerak degan savol tug'iladi. Bu odatda ishtirokchilarning yozma hisoboti, oldindan tayyorlangan blankalar berilgan kuzatuvchilarning xulosalari yoki keysni ishlash jarayonini video tasvirga olish kabi tarzida bo'ladi.

Keyslarni ishlab chiqishda muhim masalalardan biri yig'ilgan ma'lumotni yetkaza olish usuli hisoblanadi. Odatda ma'lumotni tavsiflash muammosi keys bilan endi ishlashni boshlashgan mualliflarda uchraydi. Ular keysni qaysi uslubda yozish kerak ekanligi to'g'risida uzoq vaqt mobaynida bir to'xtamga kela olmaydilar, ya'ni, rasmiy, akademik yoki norasmiy yozish uslubi. Bunda quyidagilarga amal qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

1) keys matni yaxshi tushunarli tilda yozilgan bo'lishi kerak, bunda keysni chop etishdan oldin matnni mutaxassisga tekshirishga berish lozim;

2) mualliflar keys ishlab chiqishda ikki ma'noni keltirib chiqaruvchi va vaziyatni tushunishni qiyinlashtiruvchi so'zlarni ishlatmasliklari kerak;

3) keysning ta'sir kuchini oshirish uchun uni o'tgan zamonda tavsiflash maqsadga muvofiqdir, bunda aniq bir sana kor'satilsa kifoya;

4) jadval asosida ma'lumotlarni taqdim etish, masalan, qo'shma jadvallar, diagrammalar, sxemalar, rasmlar va hokazo;

5) keys matnida keltirilgan ma'lumotlarni qayta-qayta tekshirish kerak;

6) rasm kabi qo'shimcha ma'lumotlar ilovada keltirilishi maqsadga muvofiq.

Umuman olganda o'qituvchi keysni ishlab chiqishda 3 ta yo'nalishga e'tibor qaratishi kerak: vaqt, syujet va keys tuzilishi tushuntiruvchi.

Fan bo'yicha o'tkaziladigan ma'ruzalar bilan birgalikda keyslar asosan 3 yo'nalishda qo'llanilishi mumkin:

1) fan bo'yicha birinchi ma'ruzalarda beriladigan keys, keyingi ma'ruzalarda ko'riladigan masalalar bilan tanishishga imkon beradi;

2) fan bo'yicha ma'ruzalar tugagandan so'ng qo'llaniladigan keyslar, talabalarga ma'ruzalar davomida olingan nazariy bilimlaridan qanday qilib ma'lum muammoni yechishda qo'llashni tushinib oladi;

3) o'qituvchi butun kurs davomida ma'ruzalarda ko'riladigan muammolarni ma'lum keyslar bilan tushuntirib borishi mumkin.

Shu bilan birga keyslar og'zaki va yozma imtihonlar olishda ishlatilishi mumkin. Ma'ruzada ko'rilgan nazariyalarni ishlatgan holda og'zaki imtihon vaqtida talabaga mini-keysni ishlashni taklif qilish mumkin. Yozma imtihonda 2-3 soat davomida talabaga keys bo'yicha savollarga yozma javob yozish taklif etiladi.

Oliy ta'lim muassasalari bakalavr yo'nalishlarida odatda amaliy va ta'limiy keyslardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Katta strukturalanmagan keyslarni ta'lim jarayonida qo'llash taklif etilmaydi. Chunki, bu turdagi keyslarni o'qish va analiz qilish uchun juda ko'p vaqt talab etiladi. Shu sababli bu kabi keyslarni yozma imtihon olishda yoki mustaqil ishlarni tashkil etishda qo'llash mumkin. Strukturalangan keyslarni kursning hamma bo'limlarida ham qo'llab bo'lmaydi, chunki, bunda ma'lum formula yoki modellarni qo'llash talab etiladi. Mini-keyslar esa o'qituvchi tomonidan butun kurs davomida qo'llanilishi mumkin.

X.Ye.Mayxner ta'kidlashicha, ta'lim oluvchilar ma'lumotlarni faqat passiv ravishda qabul qilishsa, ular xotirasida 10% o'qiganini, 20% eshitganini, 30% ko'rganini, 50% ko'rgan va eshitganini, 80% o'zi gapirganini, 90% o'zi bajarganini eslab qolishadi. Aynan shu sababli keys texnologiyasini qo'llashda talabalar nafaqat o'rganiladigan materialni eslab qolish, balki, olgan bilimlarni hayotda qo'llash imkoniyatini ham beradi [31].

1. Tog'li hudud keysi


Keysning tavsifi:

2016 yil 10 mart soat 12:30 da N-aholi punkti kasalxonasiga og'ir ahvolda kasal olib kelindi. Uning harorati yuqori, bir necha daqiqadan so'ng qayd qilishni boshladi. Soat 15:00 da shu kasalxonaga o'xshash alomatli yana 5 nafar kasal olib kelindi. Kechqurun soat 22:00 kasallar

soni 30 ga yetdi va qo'riqxonada xodimlaridan 2 nafari ham shu belgilar bilan kasalxonaga olib kelindi. N-aholi punktida karantin e'lon qilindi. 11 mart kuni M-aholi punktidan 5 nafar aholida shu kasallik alomatlari bilan kasalxonaga murojaat kelib tushdi.

Matbuotning axborot berishicha qo'riqxonada xodimlari 2-post hududidan olib kelingan. Kasalxona bosh shifokori matbuotga bergan xabariga ko'ra: "kasallikni yuqumli yoki yuqumsiz deyishga hali asosimiz yo'q, lekin hozirda kasallar karantin zonasiga joylashtirilgan".

Keysga ilova:



4-rasm. Tog'li hudud mini-keysi

Keys yuzasidan savollar:

1. Qanday kasallik tarqalgan, deb o'ylaysiz?
2. Kasallikning manbasi nima bo'lishi mumkin?

3. Kasallik qanday yo'l bilan tarqalgan?
4. Bo'lajak kimyogar (shifokor, biolog yoki ekolog) sifatida bu vaziyatda nimaga e'tibor berishingiz kerak?
5. Sizning fikringizcha namuna (proba) qaysi hududdan olinishi kerak?
6. Analitik kimyoda amalga oshiriladigan qaysi analiz turlarini mazkur vaziyatda qo'llasa bo'ladi?

Albatta, bu keys imitatsion bo'laganligi sababli kasallikning aniq tashhizi berilmagan. Ammo, kimyo kursida analitik kimyo fanida suv, havo, qattiq jismlardan namuna olish tartibi, o'rtacha namuna, namuna bilan kimyoviy ishlash usullari kabi tushunchalar keng yoritilgan. Shu sababli savollar ham aynan analitik kimyo kursi nazariy asoslaridan tayyorlangan. Aynan shu keysni tibbiyot instituti talabalariga ham kimyo fani yuzasidan ma'ruza, amaliy mashg'ulot yoki mustaqil ta'lim sifatida taklif qilinishi mumkin. Bunda tibbiyotga oid spesifik savollar kiritilsa keysning qiyinchilik darajasi tibbiyot instituti talabalariga mos bo'ladi.

2. Daryodagi suv muammosi keysi

Ushbu keysda ham analitik kimyo fani bilan bog'lab tayyorlangan bo'lib, hayotiy sharoitga moslashtirib yaratilgan imitatsion keys hisoblanadi. Keys voqea joyini tavsiflashdan boshlanadi.

Keys tavsifi: 2018 yil 25 fevral kuni ertalab soat 7:00 da ariq bo'yida xaritada 1 raqami bilan belgilangan joydan baliqchi bir necha jonsiz baliqlarni topadi. So'ng soat 10:00 da ishlab chiqarish korxonalari hududiga yaqin joydan, ya'ni, daryodan ekologiya laboratoriyasi xodimlari ham xuddi

shunday jonsiz baliqlarni topishadi va laboratoriyaga tekshirishga yuborishadi. Bu haqda tegishli tashkilot xabar beriladi. Keyinchalik soat 20:00 da baliqchilik korxonasining boshlang'ich suv havzalarida ham baliqlar jonsiz holda topilgan. Aholi punktda yashovchi baliqchi 55 yoshli fuqaroning ommaviy axborot vositalari (OAV) ga bergan intervyusiga ko'ra: "Men oldin bunaqa baliqlarning ko'plab o'lganini ko'rmaganman. Fevral oyi va havo harorati 10 daraja soquvligiga qaramasda daryo o'zanining muzlamasligi ham men uchun juda ajablanarli. Shu yoshga kirgan bo'lsam ham daryo o'zanining muzlamasligini mana ikkinchi yil kuzatyapman, oldinlar faqat muzlab kelgan bu daryo". OAVga yana bir mahalliy fuqaroning intervyusida aytishicha, baliqlar oldingiga qaraganda kattalashib ketgan, hatto o'tgan yil baliqchilar qayiqdek kattalikdagi baliqni ushladi, lekin, uni tortib bilishmadi, u ipni uzib ketgan".

Bunda har bir talabalar guruhiga ayni "ishni" ni yechimini topish topshiriladi. Talabalarga o'qituvchi tomonidan o'ziga xos savollar bo'yicha qo'shimcha ma'lumot berishi mumkin.

Keys tavsifida turli tashkilot va vakolatli organlar tomonidan tegishli hisobot va bayonotlar keltiriladi. Talabalarga analitik kimyo va tahlil usullari bilan bog'liq bo'lgan BKMlar: namunalar olish tartibi, joyi va namunalar bilan ishlash uslubiyoti; xatoliklarni aniqlashi; tahlil o'tkazish uslubiyoti; baliqlar o'limining sababini aniqlash kabi vazifalar qo'yiladi.

Keys talabalarga qismlarga ajratib taqdim etiladi va har bir qismni yechishda 2 soatdan vaqt beriladi. Mustaqil ta'lim uchun esa, ya'ni, tegishli tajribalarni bajarish uchun 3-4 soatdan vaqt ajratiladi. Bunda guruh a'zolaridan biri guruh sardori bo'lib, uning vazifasiga keysni yechish uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlar, tajribalar va natijalarni umumlashtirish, prezentatsiya tayyorlash kabilar kiradi. Qolgan a'zolar spiker, "qoralovchi"

kabi vazifalarni tanlab olishadi. Analitik tajriba va tahlillarni barcha talabalar bajaradi.

Keysning birinchi qismida talabalarga xarita beriladi. Xaritada baliqlarning topilgan joyi belgilangan. Shu bilan birga qo'shimcha ravishda baliqlarni topgan baliqchi va shu yerda yashovchi aholining jurnalistlarga bergan intervyulari keltiriladi. Bunda talabalar olingan ma'lumotlarga asoslanib qayerdan va qanday namunalar olishlari, namunalar soni (namunalar soni cheklangan) haqida va taxminlarini hisobot tarzida yozish vazifasi qo'yiladi. Hisobotlar yozilgandan so'ng talabalarga ekologiya mutaxassislari tomonidan olinadigan namunalarga tavsif beriladi.



5-rasm. “Daryodagi suv muammosi” keysiga ilova

Ikkinchi qismda guruhlariga ular tanlagan namunalarning tahlil natijalari keltiriladi va shu bilan birga daryoning turli joylaridan olingan suv namunalarining laboratoriya xulosalari keltiriladi. Tahlil natijalaridan

guruhlar tegishli xulosa qilib qisqacha hisobot tayyorlash vazifasi beriladi. (Keysning ikkinchi bosqichdagi tahlil natijalaridan talabalar suvdagi kimyoviy moddalar miqdorini taqqoslab va suvga qo'yilgan davlat standartlaridan og'ir metall izlari borligini topishlari kerak bo'ladi).

Uchinchi qismda ularga yana bir imkoniyat, ya'ni, qo'shimcha namunalar olish imkoniyati beriladi va so'ralgan namunalarining kimyoviy tahlil natijalari talabalarga taqdim etiladi. Olingan ma'lumotlarga asoslanib yakuniy xulosalar qilish vazifasi beriladi. Shu bilan birga talabalar namunalarni qaysi tahlil usuli yordamida tekshirish kerak ekanligini ko'rsatishlari zarur. Bunda tanlangan tahlil usullarini asoslab berishlari talab etiladi.

Oxirgi bosqichda talabalar barcha ma'lumot va xulosalardan qisqa prezentatsiya tayyorlaydilar, bunda prezentatsiya dalil va misollarga asoslangan bo'lishi kerak.

Keys yuzasidan talabalarga beriladigan ba'zi savollarni keltirish mumkin:

- 1) Birinchi bo'lib ushbu vaziyatda nimaga e'tibor berish kerak?
- 2) Qanaqa namunalar olasiz?
- 3) Namunalarni qayerdan va qaysi usulda olasiz?
- 4) Namunalar soni nechtani tashkil etadi? Javobingizni izohlab bering.
- 5) Namunalarga qo'yilgan talablarni yozing.
- 6) Namunalarni tekshirishda qaysi bilgan usulingizni qo'llaysiz?

Prezentatsiyada guruh tomonidan tanlangan strategiya, bajarilgan amallar, zaharlanishning sababi yoki sabablari, guruh a'zolarining funksiyalarini izohlab berishlari lozim. Tayyorlangan prezentatsiyalar o'qituvchiga beriladi va prezidentatsiya qayta tuzatilmaydi. O'qituvchi o'z navbatida prezentatsiyalar asosida ma'ruzalarni tashkil etadi. Ma'ruzadan so'ng har bir prezentatsiya tahlil etilib, guruh a'zolariga boshqa guruhlar

savol berishadi. Hamma guruhlar ma'ruzalarni tugatgandan so'ng o'qituvchi muhokamani tashkil etishi va tegishli izohlarni berishi mumkin.

Keyingi keys [32] adabiyotda keltirilgan ma'lumotlar asosida. Har bir qismdan so'ng tegishli savollar keltirilgan.

3. Yosh bola muammosi keysi

Keys tavsifi: Besh yoshli bola uyda o'yinchoqlar o'ynab o'tirgan bo'ladi. Oyisi oshxonada ovqat pishirib o'tiribdi. Ma'lum vaqtdan so'ng otasi qo'lida bozordan narsalar olib qaytib keladi. Narsalarni ostonada qoldirib, og'lini o'pib uyga kirib ketadi. Bola otasi keltirgan narsalarni paketlardan olib har tomonga yoyib tashlaydi. Keyinroq hammalari kechki ovqatni tanovul etadilar va hamma uyquga ketadi. Uch soatdan so'ng bola qornida og'riq bilan uyqudan yig'lab turadi. Bola qayd qilishni boshlaydi, ich ketishi va nafas olishda qiyinchiliklar kuzatiladi.

Muammo nimada deb o'ylaysiz?

Farazingizni tushuntirib bering.

Muammoga yechim topish uchun sizga qanday ma'lumot zarur?

Onasi otasiga bola odatdagidek o'yinchoq o'ynab o'tirgani va bunaqa holat umuman bo'lmaganligini aytdi. Nafas olishi qiyinlashganligini ko'rib bolani yaqin shifoxonaga olib bordilar. Qabul qiluvchi shifokor bolaning qorin og'rig'i, qayd qilish, ich ketishi, nafas bilan bog'liq qiyinchiliklar va badanidagi ko'karish qanchadan buyon davom etayotganligi, oldin allergiya kuzatilganmi, surunkali kasalligi va doimiy ravishda biror dori vositasi qabul qilishi to'g'risida so'radi. Shu bilan birga bola nima iste'mol qilganligi va nima ichganligi, qayerda bo'lganligi va nima bilan shug'ullanganligi to'g'risida so'radi. Onasi shifokorning savollariga quyidagicha javob berdi: bolamda hech qanday surunkali kasal va allergiya yo'q, oldin hech qanday

dori vositalarini doimiy ravishda qabul qilmagan, faqat ertalab ovqat yemadi, keyin men u yoqtiradigan sho'rva tayyorladim kechqurungi nonushtaga yaxshi iste'mol qildi. Deyarli hech narsa ichgani yo'q, doimgidek uyda o'yinchoqlar o'ynab o'tirdi, kechki nonushtadan so'ng xonasiga etdik va uyquga yotdi. Bunaqa simptomlar oldin umuman kuzatilmagan va bu uch soat davom etyapti.

Bunda shifokor bolani birlamchi kuzatishda ahvoli og'irligini ko'rdi. Bolaning nafas olishi daqiqasiga 34 marta, qon bosimi 120/70 mm simob ustuni, tomir urishi daqiqasiga 114 marta, harorati 37 °C ni tashkil etdi. Nevrologik jihatdan mushaklar relaksatsiyasi yaxshi, qo'l va oyoqlari normal emas hamda bo'g'imlari gipoaktiv. So'ng umumiy qon tahlili, qon biokimyosi, qon gaz va mochevina tahlili, elektrokardiogramma va ultratovush tahlilini o'tkazishni buyurdi. Bemorni intensiv xonaga o'tkazdi.

Farazingiz o'zgardimi? yangi ma'lumotlarga asoslanib tahlil qiling.

Muammoning yechimi ayting. Muhokama qiling va asoslar keltiring.

Bo'lajak shifokor sifatida nima qilgan bo'lar edingiz?

O'tkazilgan tahlillar asosida quyidagilar aniqlandi. Bemordan olingan qonning rangi to'q jigarrang.

4-jadval.

Yosh bola muammosi keysiga ilova

Tahlil	Tahlil belgisi	Tahlil natijasi	5 yoshli bola uchun normal ko'rsatkichlar
Gemogramma	Gemoglobin	11,1 g/dl	11,5-15,5 mg/dl
	Gematokrit	33%	35-45%
	Trombosit	$264 \cdot 10^3 \text{ mm}^{-3}$	$150 - 400 \cdot 10^3 \text{ mm}^{-3}$

Tahlil	Tahlil belgisi	Tahlil natijasi	5 yoshli bola uchun normal ko'rsatkichlar
Qon biokimyosi	Mochevina	59 mg/dl	7-26 mg/dl
	Kreatinin	3,4 mg/dl	0,3-1,40 mg/dl
	K	7,5 mEq/l	3,4-4,4 mEq/l
Siydik tahlil	Siydik zichligi	1012	1015-1025
	Proteinuriya	200 mg/l	< 150 mg/l
	pH	7,10	7,35-7,45
	HCO ₃ ⁻	18 mEq/l	22-26 mEq/l
	pCO ₂	25 mm. sim. ust.	35-45 mm. sim. ust.
	pO ₂	120 mm. sim. ust.	80-100 mm. sim. ust.
	Metgemoglobin	30%	< 1%
EKG	Keskin qirrali T simon to'lqinlar		Normada
Ultartovush tahlil	Ikkala buyrakning o'lchamlari normal, buyrak yetishmovchiligining uchunchi darajasi		Buyrak o'lchamlari normal

Bunda talabalar o'zi tushunmagan va ular uchun yangi bo'lgan ma'lumotlarni o'qituvchidan so'rab olishadi.

Yangi ma'lumotlarga asoslanib farazingizni qayta ko'rib chiqing.

Muammoning yechimi ayting. Muhokama qiling va asoslar keltiring.

Bo'lajak shifokor sifatida nima qilgan bo'lar edingiz?

Laboratoriya tahlillariga asoslanib shifokor bemor bolada metgemoglobinemiya, sianoz, giperkaliyemiya va asidoz belgilari borligini

aniqladi va bola zaharlangan degan xulosaga keldi. Bolaning onasini yana bir bor so'roqqa tutdi.

Bola koma holatiga tushdi. Shifokor bolaning nimadan zaharlanganligini bilmasdi, shuning uchun uning oshqozonini yuvishni hamda aktivlangan ko'mir berishni buyurdi. Shu bilan birga metgemoglobinemiya va sianozga qarshi 1-2 mg/kg metilen ko'ki eritmasini; 10% li 0,5 ml/kg kalsiy glyukonat, 1 g/kg glyukoza, 0,1 birlik/kg insulinning 10% li glyukozadagi eritmasi va 1 mEq/kg natriy gidrokarbonat eritmalaridan venaga quyishni (yuborishni) hamda asidoz va giperkaliyemiya uchun salbutamol berishni buyurdi. Nevrolog bilan maslahatlashgan holda qo'l va oyoqlari shishganligiga qarshi venaga 20-40 mg furosemid buyurdi. Bundan tashqari kislorod giperbarik terapiyasini ham qo'llashni aytdi.

Bunda talabalar o'zi tushunmagan va ular uchun yangi bo'lgan ma'lumotlarni o'qituvchidan so'rab olishadi.

Yangi ma'lumotlarga asoslanib farazingizni qayta ko'rib chiqing.

Muammoning yechimi ayting. Muhokama qiling va asoslar keltiring.

Bola nimadan zaharlangan deb o'ylaysiz?

Shifokor nimaga aynan shu dori vositalari va davolash muolajalarini qo'lladi?

Bo'lajak shifokor sifatida nima qilgan bo'lar edingiz?

Shifokor bolaning otasini chaqirib uydagi barcha dori vositalari va kimyoviy vositalarni tekshirib kelishni aytdi. Bolaning otasi uydagi barcha dori vositalarini va kimyoviy vositalarini ochib ko'rdi. Hech qaysi ochilmagan. Birdaniga xonada bozordan keltirgan paketlarning yoyilib yotganini ko'rdi. Shoshib ketganlarida bu holatga e'tibor bermaganligini payqadi va egilib stolning tagidan paketlarni tortib olganda bo'sh gugurt qutisini ko'rib qoldi.

Yangi ma'lumotlarga asoslanib farazingizni qayta ko'rib chiqing.

Muammoning yechimi ayting. Muhokama qiling va asoslar keltiring.

Nima deb o'ylaysiz, bola gugurtdan zaharlanganmi?

Bolaning otasi bo'sh gugurt quttisini olib shifoxonaga bordi va xotinidan bozordan olib kelgan gugurtni paketdan olganligini so'radi. Xotini paketlarda hech qanaqa gugurtni ko'rmaganini aytdi. Bolaning otasi va onasi bola gugurtni yegan deb taxmin qilib, bo'lgan voqeani darhol shifokorga aytib berishdi. Shifokor oldin bu kabi zaharlanish holatini uchratmaganligi sababli tegishli tashkilotlar bilan maslahat qildi. O'rganishlar va tadqiqotlar natijasida gugurt tarkibidagi ClO_3^- ioni gemoglobin strukturasi buzishi va temir ionini +2 oksidlanish darajasidan +3 gacha oksidlashi aniqlandi.

Muammoning yechimi ayting. Muhokama qiling va asoslar keltiring.

Bolaning organizmida kechgan kimyoviy reaksiyani yozing.


Shifokor olingan ma'lumotlardan to'g'ri davolash usulini tanlaganini angladi va qo'shimcha ravishda konvension gemodializni qo'llashni buyurdi. Shifokor jami 4 marta konvension gemodializ va 10 marta giperbarik kislorod davolash muolajasini amalga oshirdi. Natijada bola 19-kun normal ahvolda shifoxonadan javob berildi.

Yangi ma'lumotlarni muhokama qiling.

Nima uchun aynan konvension gemodializ qo'llanilganini tushuntiring.

O'zingiz uchun qanday yangi ma'lumotlarni o'rgandingiz.






**6-rasm. Talabalar bilan keysni muhokama qilish jarayoni (rasmda
o'zbek guruh talabalari va hind guruhlari)**

Talabalarni baholash bo'yicha taklif etilgan mezonlar

a) tajribalarni bajarish texnikasi – 30%; keys yuzasidan savollarga javob yozish – 30 %; ogʻzaki prezentatsiya – 30 %; savol- javobda qatnashish 10%.

b) guruh a'zolarining tajribalarni birgalikda bajarishi – 30 %; bir betlik qisqacha hisobot yozish 40 %; ogʻzaki prezentatsiya – 30 %.



7-rasm. Talabalar hisobot ishlaridan namunalar

Barcha amallar – namuna olishdan boshlab tajribalarni o'tkazish texnikasi va natijalarni olishgacha bo'lgan davr hisobot tarzida rasmiylashtirilishi nazarda tutilgan.

5-jadval.
Talabalarning bilimini baholash bo'yicha taklif qilingan mezon

№	Bajarilishi kerak bo'lgan amallar	To'g'ri	Xato	Yutuqlar	Kamchiliklar
1	Namuna olish qoidalari: Qumdan Suvdan				
2	Namunani rasmiylashtirish va saqlash qoidalari				
3	Tajribalarni bajarishda texnika xavfsizligi qoidalari				
4	Analitik reaksiyalarni bajarish ketma-ketligi Qum tahlili Suv tahlili				
5	Natijalarni hisoblash va rasmiylashtirish				
6	Prezentatsiya tayyorlash va ma'ruza qilish				
7	Savollarga javob berish				

Kichik guruhlar ro'yxatga olish uchun alohida laboratoriya jurnali tashkil qilindi. Kichik guruhlar dars tugagandan so'ng navbat bilan kelib

ro'yxatdan o'tishi, qanaqa tajribani bajarishi, nima reaktivlar kerak ekanligi va kelgan vaqtlarini jurnalda qayd qilishlari, shu bilan birga barcha tajribalar laborant kuzatuv ostida bajarilishi ta'minlandi. Tajribani bajarishda har bir talaba o'z laboratoriya ishi daftariga tegishli reaktivlar, reaksiya tenglamalarini qayd qilishi ko'rsatilgan. Barcha tajribalar bajarilgandan so'ng guruhlar umumlashtirilgan hisobot papkasini tayyorlashlari kerak edi. Hisobot papkasida kichik guruh talabalari tomonidan olingan namunalar, namuna to'g'risida ma'lumotlar, talabalarning shaxsiy laboratoriya daftarlari, belgilangan shakldagi hisoboti va fotolavhalar o'rin olgan. Quyida talabalar tomonidan tayyorlangan hisobotdan namuna keltirilgan.

Hisobot papkasi tayyor bo'lgach, kichik guruh fan o'qituvchilariga bajargan ishlari to'g'risida prezentatsiya tayyorlab hisobot berishlari belgilangan. Har bir kichik guruh talabalari mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan baholash mezoni ko'rsatkichlari asosida baholandi, baholash mezoni 5-jadvalda keltirilgan. Baholash mezoni ko'rsatkichlarini mavzu yoki fan bo'limidan kelib chiqib o'zgartirilishi mumkin. Baholashni guruhlar kesimida va har bir talabaga nisbatan individual amalga oshirish imkoniyati mavjud.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan kimyodan tayyorlangan keys talabalarda mustaqil ravishda o'z ustida ishlash, tahlil o'tkazish uslubiyotini rivojlantirish, noan'anaviy sharoitlarda qaror qabul qilish, analitik fikrlash qobiliyati, adabiyotlar bilan ishlash, ma'lumot va axborotni qayta ishlash, tahlillarda xatoliklarni aniqlash malakasiga ega bo'ladi;

ikkinchidan tajriba ishlarining laboratoriyada "standart" va an'anaviy usullaridan ko'ra keysda ko'rilgan hikoyadagi muammolarni yechish uchun yo'naltirilgan tajribalarni bajarishda talabalar to'liq qamrab olinadi;

uchunchidan talabalar olgan bilimlarini amalda sinash imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa o'z navbatida tajribalarni mustaqil ravishda bajarishga motivlashtiradi;

to'rtinchidan kelajakda bitiruvchi ish jarayonida noodatiy muammo bilan to'qnashganda keys ishlash jarayonida egallagan ko'nikmalarini osonlik bilan qo'llash imkoniga ega bo'ladi;

beshinchidan ishlab chiqilgan keyslar ilmiy tadqiqotga yo'naltirish va stimallashtirish yo'lida xizmat qiladi.

IV. TALABALAR ORASIDA SO'ROV O'TKAZISH VA UNI TAHLIL QILISH USLUBIYOTI

Yumshoq ko'nikmalar va keys usuli

Zamonaviy tibbiy ta'limda nafaqat "hard skills" tushunchasi (ingliz tilidan qattiq, qattiq ko'nikmalar) bilan bog'liq bo'lgan aniq fan yuzasidan bilimlari, ko'nikmalari, malakalarini o'rgatish muhimdir. Odatda, talabalar ushbu tibbiyot ko'nikmalarini va malakalarini tibbiyot oliy ta'lim massasalarida an'anaviy uzoq muddatli o'qish va keyinchalik chuqur ixtisoslikka o'tish davrida muvaffaqiyatli egallaydilar. Albatta, hard skills rasmiy ravishda ularning o'z ishlarini sifatli bajarishga asos yaratadi. Ammo, bu unchalik qadar oddiy emas.

Bugungi shiddat bilan o'zarib borayotgan zamonda tibbiyotda "soft skills" (moslashuvchan yoki yumshoq ko'nikmalar) deb ataladigan kasbdan yuqori yoki universal kompetentsiyalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular kelajakdagi kasbiy faoliyatning ma'lum bir sohasi bilan kamroq bog'liq bo'lganligiga qaramasdan bo'lajak shifokorning kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Ularning asosini psixologik nuqtai nazardan ijtimoiy, intellektual va xoxish-iroda kabi xususiyatlar tashkil etib, ularga, shaxsiy fazilatlar, munosabat, ijtimoiy ko'nikmalar, boshqaruv qobiliyatlari va boshqalar misol bo'ladi. Bu kompetensiyalar kelajakda shunga o'xshash vaziyatlarda samarali faoliyat yuritish uchun turli xil hayotiy vaziyatlarda talabaning shaxsiyati, ijobiy tajribalarni yig'ish, qayta ishlash va birlashtirish qobiliyatiga ko'proq bog'liqdir.

Interfaol ta'lim texnologiyasi sifatida keys usuli tibbiyot talabalariga turli xil yumshoq (moslashuvchanlik) ko'nikmalarini shakllantirish uchun eng

maqbul hisoblanadi. To'liq tahlil qilish, muayyan muammoli vaziyatni modellashtirish va hal qilish asosida talabalar kompleks fanlararo yondashuvdan foydalanib, eng kerakli universal kompetentsiyalarni – tanqidiy, tahliliy va ijodiy fikrlashni, uyushqoqlik, boshqalar bilan tez muloqotga kirishisha olish, moslashuvchanlik, samimiyat, jamoada ishlash, rahbarlik va boshqa muhim qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Talabalar orasida psixologik so'rov o'tkazish bizga nima beradi?

Yumshoq ko'nikmalarni o'lchash qiyin, degan fikr mavjud bo'lsa-da, ammo, shunday maxsus psixodiagnostik usullar borki, ularni to'g'ri ishlatilganda so'rov o'tkaziladiganlarning ma'lum fazilatlarining darajasini aniqlashga imkon beradi. Xo'sh, innovatsion ta'lim texnologiyalarida o'qiyotgan talabalarni psixologik so'rov nima berishi mumkin?

An'anaviy ta'lim texnologiyalari va keys usuli yordamida o'tkaziladigan mashg'ulotlarda qatnashadigan talabalar o'rtasida so'rov o'tkazish, ushbu interfaol texnologiyalardan foydalanadigan o'qituvchiga quyidagilarga erishishga yordam beradi:

- ma'lum bir talabalar guruhida keys usulining samaradorligini baholash;
- turli xil ta'lim texnologiyalaridan foydalanib dars beriladigan talabalarining psixologik ko'rsatkichlarini taqqoslash;
- talabaning kasbiy rivojlanishiga xalaqit beradigan shaxsiy xususiyatlarini aniqlash;
- talaba uchun shaxsiyatga bog'liq mumkin bo'lgan maqbul o'zgarishlar yo'nalishini obyektivlashtirish;

- har bir talaba yoki ma'lum bir guruh talabalarining o'lchanadigan psixologik parametrlar dinamikasi yo'nalishini kuzatish;
- ma'lum bir o'quv guruhining talabalari o'rtasida yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirish uchun vazifalar va muammoli vaziyatlarni tanlashni amalga oshirish.

So'rov qanday o'tkaziladi?

Talabalar mavjud psixodagnostik usullar yordamida so'rovnomada qatnashishlari yoki aniq amaliy vazifalarga qaratilgan o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan savolnomalar orqali o'tkazilishi mumkin. Agar o'qituvchida yetarlicha tajriba bo'lmasa, mavjud psixodagnostik usullarga murojaat qilish kerak.

Birinci so'rovni semestrning boshida, ikkinchisini esa – tugashidan oldin o'tkazish tavsiya etiladi. Birinchi bosqichda talabalar ism shariflarini ko'rsatmasdan savollarga javob berishlari, ya'ni, so'rov anonim bo'lishi mumkin. Ushbu yondashuv maxfiylikni saqlashga, respondentning real vaziyatni haqiqiy baholashga va uni haddan tashqari yaxshi deb ta'rif berish tabiiy istagini yengishga imkon beradi. Bunday holda barcha ko'rsatkichlar guruh uchun bir butun sifatida belgilanadi. Qayta so'rov o'tkazilganda ham barcha talabalar ishtirok etishi juda muhimdir. Baholash, shuningdek, guruhli (o'rtacha) ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Agar so'rov bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq guruhlarda o'tkazilsa, ushbu guruhlardagi o'rtacha ko'rsatkichlarni taqqoslash va ularning kuchli va zaif tomonlarini baholash mumkin bo'ladi. Agar topshiriq davomida talabalar guruhi bir nechta kichik guruhlariga bo'lingan bo'lsa, ushbu kichik guruhlardagi psixologik ko'rsatkichlarni aniqlash (o'lchash) mumkin.

Talabalar testlarni o'tkazish tajribasiga ega bo'lganda va ularning ushbu jarayonga bo'lgan qiziqishi oshsa, siz ochiq so'rovnoma o'tkazishni boshlashingiz mumkin. Bunday vaziyatda har bir talaba o'zgarishlarning yo'nalishini va o'zgarishini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lib, keyinchalik o'zlarining ma'lum bir shaxsiy jihatlarini rivojlantirishga ko'proq e'tibor beradi.

So'rov o'tkazishning an'anaviy usuli talabalarga qog'oz so'rovnomalarini tarqatish bo'lib, ular so'rovnomaga qalam yoki ruchka bilan tegishli belgilar qo'yish bilan amalga oshiriladi. Shundan so'ng, to'ldirilgan shakllar yig'ib olinadi, qayta ishlanadi va tahlil qilinadi. Agar psixodiagnostika usullari bilan maxsus dasturlardan foydalanish imkoniyati bo'lsa, so'rovni kompyuter muhitida oflayn yoki onlayn rejimda o'tkazish mumkin.

So'rov o'tkazishning yanada qulay shakli – internet va zamonaviy aloqa vositalari – smartfonlar yordamida onlayn shaklda o'tkazish hisoblanadi. Mavjud onlayn xizmatlardan foydalanib – Google Form, Yandex.Form, SurveyMonkey, Typeform, Survio, Testograf, Anketa va boshqalar, oldindan maxsus elektron shaklni yaratib, nafaqat hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlarni kiritish zaruratidan qutulish, balki, dastlabki natijalarni tezda olish imkoni bo'ladi.

Quyida tibbiy ta'limda keyslarni qo'llanilishida psixologik xususiyatlarga, ularning mazmuniga, yo'nalishiga va tuzilishiga, shuningdek ularni aniqlashga imkon beradigan psixodiagnostik texnikaga murojaat qilish jarayonida o'rganish uchun mo'ljallangan eng istiqbolli usullar keltirilgan.

Tadqiqot uchun tavsiya etilgan psixologik xususiyatlar

A. Akademik xususiyatlar

Ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ko'plab psixologik xususiyatlarning faqat bir nechtasi quyida keltirilgan, bizning fikrimizcha, talabalarni innovatsion texnologiyalar bo'yicha o'qitishga muvaffaqiyatli jalb qilish omillarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Motivatsiya insonning xulq-atvori va faoliyatida, kelajakdagi kasbni shakllantirish jarayonida asosiy harakatlantiruvchi kuchdir. Aynan motivlashtirish yoki motivatsiya bo'lajak mutaxassisning alohida intizomga va butun o'quv jarayoniga bo'lgan munosabatini o'zgartirish kuchiga ega bo'lgan omildir. Shu sababli, talabalarni o'quv va ilmiy faoliyatga malakali rag'batlantirish masalasini ko'tarish ayniqsa muhimdir.

Akademik motivlashtirishning yo'nalganligi

O'rganishga qaratilgan motivlashtirish (ta'limiy motivlashtirish, akademik motivatsiya) tibbiy kasbni egallashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ta'limni motivlashtirishni tashqi va ichki yo'nalganligi turlari ajratiladi. Ichki motivatsiya talabaning o'z faoliyati bilan bevosita bog'liq – talaba o'quv jarayonida juda faol ishtirok etadi, u bilan bog'liq bo'lgan narsalardan hissiy qoniqish oladi, sababi uning maqsadi o'rganish. Ichki motivatsiya ijodiy vazifalar, kontseptual fikrlash va kognitiv moslashuvchanlikning namoyon bo'lishi bilan ijobiy bog'liq bo'lib, u yanada samarali ta'lim strategiyalari, qat'iyatlilik, samarali kurash strategiyalarini o'rganish, akademik yutuqlar va psixologik farovonlik bilan ijobiy bog'liqdir. Ichki motivatsiya o'rganish davomida faoliyat jarayonida quvonchli ishtiyoq, g'ayrat, zavq oqimni his etish bilan kechadi. Tashqi motivatsiya esa boshqa omillar bilan belgilanadi. Bunda o'quv materiallarini mahorat bilan egallash boshqa maqsadlarga erishish vositasidir, masalan, yaxshi baho olish, maqtovga sazovor bo'lish, tan olinish, diplom olish, boshqalarning talablariga bo'ysunish. Bunday motivatsiyaga ega bo'lgan talaba aslida o'quv

jarayonidan chetlashtirilgan talabadir va o'quv jarayonning mazmuni u uchun ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Diagnostika T.D. Dubrovitskayaning “Методика диагностики направленности учебной мотивации” nomli so'rovnomasi yordamida amalga oshiriladi. Uning maqsadi o'quv faoliyati uchun ichki motivatsiya yo'nalishini va ifodasini aniqlashdir. Anketa 20 ta mulohaza va to'rtta mumkin bo'lgan javoblardan iborat.

So'rov natijalariga ko'ra o'rganish uchun ichki motivatsiyaning ifodasini darajasi to'g'risida xulosalar chiqarish mumkin: ichki motivatsiyaning past darajasi; ichki motivatsiyaning o'rtacha darajasi; ichki motivatsiyaning yuqori darajasi.

Ichki motivatsiyaning past va o'rta darajasiga ega bo'lgan talabalar dars davomida o'qituvchining alohida e'tiborida bo'lishi kerak. Darsni yuqori darajada tashkil etish va butun guruhni interfaol jarayonga mohirona jalb qilgan holda, keys usuli yordamida eng aniq ijobiy dinamikaga ega bo'lish imkonini beradi.

Akademik motivatsiyaning tuzilishi

Ta'lim faoliyati uchun motivatsiya (akademik motivatsiya) – bu nafaqat motivlarni, balki maqsadlar, muvaffaqiyatsizliklarga javob berish strategiyalari, qat'iyatlilik, kognitiv tarkibiy qismlar va mexanizmlarni o'z ichiga olgan ko'p qirrali strukturadir. Motivlar subyekt tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatning ongli va ongsiz ravishda amalga bajarilishi sifatida tushunilib, ularning ortida uning ehtiyojlari va qadriyatlari yotadi. Faoliyat motivlari nafaqat intensivligi, balki, tarkibiy va iyerarxiyadagi o'rni jihatidan ham farq qiladi. Motivlarning mazmuni va bajariladigan faoliyatning tabiati o'rtasidagi bog'liqlik ularning faoliyati samaradorligi va shaxsning psixologik holatiga ta'sir qilish xususiyatlariga bog'liq.

Akademik motivatsiya shkalasi (The Academic Motivation Scale, qisqacha. AMS) o'quv faoliyati uchun motivatsiya darajasi va turini aniqlaydi (o'lchaydi). T.O. Gordeyeva, O.A. Sichev va E.N. Osinlar tomonidan moslashtirilgan so'rovnoma yettita shkaladan iborat:

- bilish motivatsiyasi yangi narsalarni o'rganish istagini tashhishlashga, o'rganilayotgan mavzuni tushunishga, qiziqish va zavqlanish tajribasi bilan bog'liq.

- yutuqlarni motivlashtirish eng yuqori akademik natijalarga erishish, qiyin muammolarni hal qilish jarayonida zavqlanish istagini o'lchaydi.

- motivatsiya o'quv faoliyati doirasida o'z qobiliyatlarini, potentsialini rivojlantirish istagini o'quv jarayoni doirasida mohirlikka erishish va kompetentlikka erishish ifodalarini o'lchaydi.

- o'zini hurmat qilish motivatsiyasi o'quv jarayonida ma'lum yutuqlarga erishish orqali o'z o'rnini yuqori baholash va o'z-o'zini hurmat qilishni o'rganish istagini o'lchaydi.

- ichkariga yo'nalgan motivatsiya, o'zini va boshqa muhim odamlarning oldida uyat va burch hissi tufayli o'rganishga bo'lgan qiziqishni o'lchaydi.

- tashqariga yo'naltirilgan motivatsiya talabani jamiyat tomonidan qo'yilgan talablarga rioya qilish zarurati tufayli majburiy ta'lim olish faoliyatini baholaydi: u yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish sababli o'rganadi, avtonomiyaga bo'lgan ehtiyoj esa maksimal darajada buziladi.

- amotivatsiya o'quv faoliyatiga qiziqish va ma'nosining yetishmasligini o'lchaydi.

So'rovnoma ichki motivatsiyaning xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi: bilish, yutuq, takomillashtirish motivlarining ifodasini, shuningdek tashqi: tashqariga yo'nalgan, ya'ni, muammolardan qochish uchun faoliyatni

amalga oshirish istagi, avtonomiyaga bo'lgan ehtiyojning tushkunligi sifatida qabul qilingan va burch hamda uyat va o'zini o'zi anglash motivi tajribasida namoyon bo'ladi.

Yutuq motivatsiyasi

Muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya to'siqlarni yengib o'tish, yuqori darajada o'qish, mehnat qilish, o'zini takomillashtirishga erishish, boshqalar bilan raqobatlashish va ulardan oldinda bo'lish, o'z iste'dodlarini ro'yobga chiqarish va shu bilan o'z-o'zini hurmat qilishni oshirish zaruriyatida namoyon bo'ladi. Muvaffaqiyat motivatsiyasi – bu shaxsning muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik zarurati bilan bog'liq faoliyat motivatsiyasidir. Muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik uchun motivatsiyani shakllantirish quyidagi omillarga bog'liq: tarbiya muhiti va sharoitlariga, shuningdek, muvaffaqiyatning ehtimolligini baholash, vazifalarning qiyinligi, shaxsiy muvaffaqiyatning jozibadorligi yoki bu faoliyatdagi muvaffaqiyatsizlikka, muvaffaqiyatga erishganda yoki muvaffaqiyatsizlikka uchraganda javobgarlikni o'ziga yoki atrofdagi holatlarga bog'lash.

A. Mehrabianning yutuq motivatsiyasini o'lchash uchun test so'rovnomasi (M.Sh. Magomed-Eminov moslashtirgan) ikkita umumlashtirilgan barqaror shaxsiy motivlarni tashxislash uchun mo'ljallangan – muvaffaqiyat sari intilish motivi va muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik sabablari. Bunda ushbu ikki motivning qaysi biri o'rganilayotgan shaxsda ustunlik qilishi baholanadi. So'rovnoma erkak va ayollarga mo'ljallangan shakllari mavjud. Umumiy hisob-kitob asosida o'rganilayotgan shaxsda qaysi motivatsion moyillik ustunligi aniqlanadi. O'rganilayotgan shaxslarning barcha olingan natijalari saralanadi va ustun motivlar ajratib olinadi.

Muvaffaqiyat motivatsiyasi ustunlik qiladigan talaba uchun maqsad hammadan ustundir. Uning uchun o'rtoqlari bilan raqobatlashish va ulardan oldinga o'tish, yuqori natijalarga erishish va to'siqlarni yengib o'tish juda muhimdir. Bunday odamlar maqsadni belgilash va unga erishishni o'z qobiliyatlari deb hisoblashadi. Shunday qilib, ular o'zlarining qobiliyatlarini namoyon qiladilar va o'zlariga bo'lgan ishonchni oshiradilar. Muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik motivatsiyasi ustunlik qiladigan talabalar uchun asosiysi tinchlik va tartiblidir. Ular haqiqiy vazifalarni belgilash va sifatli bajarish kerak deb hisoblashadi. Bu muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik va obro'ga putur yetkazmaslikning yagona usuli deb hisoblashadi.

B. Shaxsiy xususiyatlar

OTMda o'qish va tibbiyot sohasidagi kasbiy faoliyatning muvaffaqiyati nafaqat motivatsion tomondan, balki, kelajakdagi shifokorning o'ziga xos xususiyatlariga ham bog'liqdir. Tibbiyot kasbi bilim, amaliy ko'nikma va qobiliyat darajasiga, shuningdek, shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga alohida talab mavjud bo'lib, bu tibbiy-diagnostika va profilaktika jarayonini samarali tashkil etish, bemor, uning qarindoshlari, hamkasblari va rahbariyati bilan munosabatlarni o'rnatish imkonini beradi. Mutaxassisning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, unga kasbiy faoliyatning salbiy ta'siriga, masalan, stress darajasi va hissiy holatlariga dosh berishga imkon beradi. Ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyati, ayniqsa innovatsion texnologiyalar doirasida, ularning chuqur potentsialiga murojaat qilishni talab qiladi, bu esa o'z navbatida o'quvchining moslashuvchan va mahsuldor shaxs xususiyatlarini rivojlantirishni rag'batlantirish va moslashuvchan bo'lmagan va salbiy shaxs xususiyatlarini bilvosita to'g'rilashga imkon beradi.

Shaxsiy samaradorlik

O'zining hatti-harakatlarining samaradorligiga va ularni amalga oshirishdan muvaffaqiyatni kutish deb tushunilgan bu psixologik kategoriya, uning xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi shaxsning markaziy va ancha barqaror xususiyatidir. Bu o'z kuchiga ishonish, o'z muvaffaqiyatiga, omadiga va qiyin vaziyatda muvaffaqiyatli xulq-atvorni namoyish eta olishiga bo'lgan ishonch bilan namoyon bo'ladi. O'zini boshqarish samaradorligi insonning muayyan vazifalarni bajarish qobiliyatini o'lchaydi va bu faoliyatning o'ziga xos tarkibiga bog'liq. Biror kishiga qanday ahamiyat berishidan qat'iy nazar, u qilishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida fikrlarni aks ettiradi.

Shaxsiy samaradorlik xulq-atvor qobiliyatlari xilma-xilligining kengligi, shaxsiy yutuqlar tajribasi va boshqalarning tajribasini tahlil qilish, muvaffaqiyatli tajribani ijobiy mustahkamlash va insonning jismoniy va hissiy holati bilan bog'liqdir.

R. Shvartser va M. Erusalemlar tomonidan yaratilgan "Umumiy shaxsiy samaradorlikning shkalasi" (Шкалы общей самоэффективности) yordamida so'roq qilish orqali tashxis qo'yiladi. So'rovnoma savollariga berilgan javoblar yig'indisi bilan umumiy samaradorlikning bitta ko'rsatkichi qiymatlarini olishga imkon beradi. Shaxsiy samaradorlikning yuqori ko'rsatkichlari somatik va ruhiy salomatlikning yaxshi holatiga, yuqori yutuqlarga va yaxshiroq ijtimoiy integratsiyaga mos keladi.

Refleksivlik

Refleksiya psixologiyada insonning ichki aqliy harakatlari va holatlarini o'zini bilish, ularni anglash va qayta ko'rib chiqish jarayoni sifatida qaraladi. Refleksivlik, shaxsiy sifat sifatida, shifokorning zarur kasbiy xususiyatlaridan biri bo'lib, bu o'z bilimlari, sharoitlari va harakatlarini tahlil qilishda aks ettirishga yordam beradi. Refleksivlik darajasi o'zini bilishga

bo'lgan qiziqish, e'tiborga olish va tahlil qilishga tayyorlik, axloqiy g'oyalarni rivojlantirish, o'zini boshqarish darajasi va ta'lim darajasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Refleksiya uch turga – vaziyatli (dolzarb), retrospektiv va istiqbolliga bo'linadi. Vaziyatli refleksiya hozirgi vaziyatda inson hatti-harakatlarini bevosita o'zini boshqarish, uning elementlarini tushunish, sodir bo'layotgan voqealarni tahlil qilish, subyektning o'z hatti-harakatlarini vaziyat bilan bog'liqligini va o'zgaruvchan sharoitlarga va o'z holatiga muvofiqligini ta'minlashga imkon beradi. Ushbu turdagi refleksiyaning hatti-harakatlari va xususiyatlari, xususan, subyekt uning hozirgi faoliyati haqida o'ylash vaqti; u tez-tez sodir bo'layotgan voqealarni tahlil qilishga murojaat qiladi; qaror qabul qilish jarayonlari qay darajada rivojlantirilganligi; muayyan hayotiy vaziyatlarda o'zini tahlil qilishga moyildir.

Retrospektiv refleksiya o'tmishdagi harakatlar va bajarilgan voqealarni tahlil qilish tendentsiyasida namoyon bo'ladi. Bunday holda, refleksiya predmetlari sodir bo'ladigan shart-sharoitlar, sodir bo'lgan hodisaning motivlari va sabablari; o'tmishdagi hatti-harakatlarning mazmuni, shuningdek, uning samarali parametrlari va xususan, yo'l qo'yilgan xatolar. Bu refleksiya, xususan, subyekt sodir bo'lgan voqealarni qanchalik tez-tez va qancha vaqt davomida tahlil qilgani va baholaganligi, o'tmishni va umuman o'zini tahlil qilishga moyil bo'ladimi-yo'qmi kabilarda ifodalanadi.

Istiqbolli refleksiya quyidagilar bilan bog'liq: kelajakdagi faoliyat hamda hatti-harakatlarni tahlil qilish funktsiyasi; rejalashtirish; mumkin bo'lgan natijalarni prognoz qilish va boshqalar. Uning asosiy hatti-harakat xususiyatlari: uning hatti-harakatlarining tafsilotlarini sinchkovlik bilan rejalashtirish, kelajakdagi voqealarga murojaat qilish qaytalanishi, kelajakka yo'nalganlik. Shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida aks ettirilgan muammolarni o'rganish uchun taklif qilingan umumiy strategiya – aniq umumiy tabiati

tufayli – faqat murakkab va tizimli izlanishlarda, ularning bir qator qo'shimcha sikllarida amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu psixologik xususiyatni tashxislash uchun “Karpovning refleksivlik so'rovnomasi” qo'llaniladi va uning natijalari shaxsning refleksivligining umumiy rivojlanish darajasini aniqlaydi.

Noaniqlikka bardoshlilik

Shifokorning ishi obyektiv ma'lumotlar yetarli bo'lmagan yoki vaziyatni oldindan aytib bo'lmaydigan holatlarda bemorning hayoti uchun mas'ul bo'lgan qarorlarni qabul qilish zarurati bilan bog'liqdir. Ushbu psixologik sifat “noaniqlikka bardoshlilik” deb nomlanadi va mavjud bo'lgan ma'lumotlarning yetarli emasligi, ikkilamchi va qarama-qarshi tabiati tufayli yuzaga kelgan keskin vaziyatda shaxsning to'liq ishlash qobiliyatini tavsiflaydi. Bu shaxsning psixologik barqarorligi, salomatligi va psixologik farovonligining ko'rsatkichlaridan biridir.

Ushbu shaxsiy sifatni o'lchashda “Mayk Leynning noaniqlikka bardoshlilik so'rovnomasi” (Multiple Stimulus Types Ambiguity Tolerance Scale-I, MSTAT-I) dan foydalaniladi, bunda insonning hayotini qat'iy tartiblashtirish va hamma bo'ladigan jarayonlarni aniqlashtiruvchi yoki noaniqlikka ochiqligini aniqlashga qaratilgan. E.N. Osin tomonidan modifikatsiyada quyidagi ko'rsatkichlarni farqlash mumkin: yangilikka bo'lgan munosabat, murakkab vazifalarga munosabat, noaniq vaziyatlarga munosabat, noaniqlikni afzal ko'rish va noaniqlik uchun bag'rikenglik.

O'qish paytida noaniq vaziyatlarga yuqori darajada bag'rikenglik ko'rsatgan talabalar o'z hayotlarini boshqarish qobiliyatiga ega deb bilishadi, ular o'zlarining muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan optimistik munosabatda bo'ladilar va kelajakdagi muvaffaqiyatlarga ko'proq yo'nalgan. Shu bilan birga, ular past darajadagi bag'rikenglik darajasiga ega

bo'lgan talabalarga nisbatan fikrlashga kamroq moyil bo'lib, ko'proq impulsiv va riskka yo'l qo'yishadi.

Bezovtalilik

Ta'lim va ishning muvaffaqiyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan shaxsiyatning muhim psixologik xususiyati bu – bezovtalilikdir. Umuman olganda, bezovtalanishning kichik darajasi odamning normal samarali faoliyatiga xosdir va o'zini o'zi boshqarish qobiliyatining mavjudligini aks ettiradi. Bundan tashqari, bezovtalikning darajasi turli shaxs uchun individualdir. Shaxsiy bezovtalik insonning barqaror xususiyatlariga mos keladi va tahlikali vaziyatga odatiy javob bilan taqqoslanadigan aks javob bilan namoyon bo'ladi – o'zini hurmat qilish va o'zini qadrlash. Situatsion yoki reaktiv bezovtalanish psixologik stressning muayyan holatiga hissiy aks ta'sir sifatida yuzaga keladi va xavotirlanish, tashvish, asabiylik kabi salbiy hissiy kechinmalar bilan namoyon bo'ladi.

Spilbergerning bezovtalanish shkalasi (State-Trait Anxiety Inventory, STAI) – bu muayyan vaqtdagi tashvish darajasini (holat sifatida reaktiv bezovtalanish) va shaxsiy bezovtalanish insonning barqaror xususiyati sifatida o'zini baholashning informativ usuli. Reaktiv bezovtalik holati vaqt birligida beqarorligi va stressli vaziyatning ta'sir kuchiga qarab turli xil intensivlik bilan tavsiflanadi. Ushbu indikatorning ahamiyati nafaqat sinaluvchining hozirgi bezovtalanish darajasini baholashga, balki, uning stressli vaziyat ta'siri ostida ekanligini va unga ta'sir qilishning intensivligi nimada ekanligini aniqlashga imkon beradi. Talabalarning dars paytida bezovtalanish aks ta'sirlarining tabiati va xususiyatlarini bilish keraksiz stressdan xalos bo'lishga va shu bilan o'quv jarayonini optimallashtirishga yordam beradi.

B. Uslubiy xususiyatlar

Kelajakda shifokorning kasbiy jihatdan o'zini anglashi individual faoliyat uslubini, shu jumladan, kasbiy muhitning obyektiv sharoitlariga samarali moslashish vositasi bo'lgan faoliyat usullari va usullarining barqaror tizimini rivojlantirishni nazarda tutadi. Shaxsning uslibiy xususiyatlari uning turli faoliyatlardagi hatti-harakatlarining uslublarini aks ettiradi. Ular atrof-muhit va insonning ichki resurslari talablari asosida shakllanadi va insonning moslashish mexanizmining ajralmas manzarasini aks ettiradi. Psixologik diagnostika orqali stilistik xususiyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kelajakdagi mutaxassisning kasbiy faoliyati davomida turli xil vaziyatlarda xulq-atvor xususiyatlarini oldindan aniqlash va zarur bo'lganda ularni yaxshilashga imkon beradi.

O'zini boshqarish uslubi

O'zini boshqarish ongli ravishda rivojlangan va qabul qilingan maqsadlarga erishish uchun aqliy faoliyatni boshlash va boshqarishning ko'p darajali jarayonini anglatadi. Uni amalga oshirish tartibga soluvchi jarayonlarning ko'p darajali tizimi tomonidan amalga oshiriladi, ularning asosiylari: maqsadlarni rejalashtirish, ularga erishish uchun muhim sharoitlarni modellashtirish, aniq harakatlarni dasturlashtirish, faoliyat va uning natijalarini baholash va sozlash. Faoliyatni o'z-o'zini tashkil etish jarayonida ularning o'zaro ta'siri ongli ravishda o'zini boshqarishning tizim-funksional modeli bilan tavsiflanadi. Boshqacha qilib aytganda, o'zini o'zi tartibga solish uslubi insonning hayotiy maqsadlariga erishishni rejalashtirish va dasturlashda namoyon bo'ladi, muhim tashqi va ichki sharoitlarni hisobga oladi, natijalarni baholaydi va o'z faoliyatini subyektiv maqbul natijalarga erishish uchun moslashtiradi, o'zini o'zi tashkil etish jarayonlari qay darajada rivojlanganligi va anglanganligida namoyon bo'ladi. Bo'lajak mutaxassis uchun javobgarlikni shakllantirish tibbiy ta'limda muhim o'rin tutishini

hisobga olib, ongli ravishda o'zini o'zi boshqarish tizimini rivojlantirishga katta e'tibor berilishi kerak.

V.I. Morosanovanning "O'zini o'zi tartibga solish uslubi" so'rovnomasi (Стиль саморегуляции поведения) insonning o'zini tartibga solishning individual tizimining erkin shakllanish darajasini tavsiflaydi. So'rovnomadan foydalanish respondentga asosiy tartibga solish jarayonlarining jiddiyligini – rejalashtirish, modellashtirish, dasturlash, natijalarni baholash, shuningdek tartibga soluvchi va shaxsiy xususiyatlar: moslashuvchanlik va mustaqillikni aniqlashga imkon beradi. Natijalarni qayta ishlagandan so'ng, o'zini boshqarishning turli individual tipik profillariga ega bo'lgan respondentlarning psixologik xususiyatlari belgilanishi mumkin buni esa keys asosida darslarni tashkil qilishda inobatga olinish mumkin bo'ladi.

Qaror qabul qilish uslubi

Kasbiy faoliyat jarayonida shifokor har kuni bevosita bemorlarga tashxis qo'yish va davolash, hamkasblar, rahbariyat, shuningdek, kichik va o'rta tibbiyot xodimlari bilan o'zaro bog'liq ko'plab qarorlarni qabul qilishi kerak. Ko'pincha samaraliroq tanlov qilish qiyinchilik tug'diradi. Bu albatta tanlov ro'yxatining ma'lum bo'lganida aniq bo'ladi, ammo, qaysini tanlash qiyinligi vujudga keladi. Shu bilan birga, inson ongli yoki ongsiz ravishda vazifalarning o'zi hamda odamlar o'rtasidagi munosabatlar orqali boshqarishi mumkin.

Melburn qarorlar qabul qilish bo'yicha so'rovnomasi (Melbourne decision making questionnaire, MDMQ) dars davomida amaliy muammolarni hal qilish jarayonida bo'lajak shifokorning individual qarorlarni qabul qilish uslubini aniqlashga yordam beradi. So'rov natijalariga ko'ra, respondentning individual uslubini aniqlash mumkin – qaror qabul qilishda u normativ hushyorlikka, haddan tashqari hushyorlikka, undan qochish yoki

kechiktirishga moyil. Ratsionallikning qanchalik darajada namoyon bo'lishi unga shunchalik o'z maqsadlari va qaror qabul qilishning maqbul variantlari to'g'risida, ma'lumot to'plash va muqobil sohalarni qamrab olishni qanchalik maqsad qilgani haqida samarali o'ylashga yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, u o'z qarorlarining sharti sifatida noaniqlikni qabul qilishga qodirmi yoki shunchaki salbiy oqibatlarga olib keladigan uzoq vaqt davomida muhim qarorlarni qabul qilishni kechiktiradimi.

Kognitiv (aqliy) uslub

Kasbiy faoliyati jarayonida mutaxassis ko'pincha sabab-oqibat munosabatlarining izchil tahliliga asoslangan mantiqiy mulohazalar va xulosalar shaklida ifodalangan mantiqiy bilim tizimiga ko'proq asoslanadi. Bunday tizim hissiy qutblanishdan holi bo'lib, ulkan bilim va vaqt resurslarini talab qiladi. Shu bilan birga, yana bir kognitiv tizim mavjud – sezgirlikka (intuitiv) individual tajribaga asoslangan bo'lib yuqori emotsionallika ega. Ushbu tizim yuqori javob darajasi, avtomatik yechim taklifi bilan ajralib turadi, assotsiativ va noverbal tarzda amalga oshadi. Umuman olganda, shifokorning ishida sezgining rolini baholash juda qiyin. Bu vaqt yetishmasligi, aniq tavsiyalar va qoidalarning yetishmasligi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilish uchun asos bo'lishi mumkin. Bunday hollarda, intuitiv uslub ratsional xolisona va oqilona vaziyatni tahlilini uyg'unlashtirib to'ldiradi.

Epsteynning intuitiv uslub so'rovnomasi kabi psixodiagnostik metodologiyani qo'llash (Rational-Experiential Inventory, REI) dars davomida biror bir talaba yoki guruhning tanlovni oqilona yoki intuitiv usullari bo'yicha tanlov xarakterini o'lchashga imkon beradi. Shkala natijalari respondentning sezgi qobiliyati va uning sezgini qay darajada ishlatishi haqida ma'lumot beradi. Shunday qilib, yuqori ko'rsatkichlar qaror qabul

qilish va tegishli harakatlar uchun asos sifatida intuitiv bilimlarga tayanish barqarorligini ko'rsatadi.

XULOSA

Ma'lumki, yuqori samaradorlikka erishish uchun an'anaviy va innovatsion ta'lim texnologiyalarni qo'llashda sistemali yondashishni, texnologiyalarni bir-birini to'ldiradigan darajada qo'llashni hamda guruhlar va guruhlararo muhokamani (diskussiyani) tashkil etishni talab etiladi. Bunda qo'llangan yuqori samaradorlikka ega diskussiyani tashkil qilish uchun o'qituvchi kommunikativ, interaktiv va psixologik kompetentlikka ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga keys usulini qo'llash o'qituvchining texnik menejment bilan bog'liq chuqur professionallik, ya'ni, o'yin, vaziyat va trening, o'yindan keyingi diskussiyani boshqarish texnikasi, qiyin vaziyatlardan chiqish usullarini bilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, keys usuli juda keng ta'limiy imkoniyatlarga ega. Keys usulini qo'llaganda olinadigan natijalarni ikki guruhga ajratish mumkin: o'quv – olingan bilim va malaka bilan bog'liq natijalar, hamda ta'lim – birgalikda ta'lim olish va ishlash. O'quv natijalariga yangi ma'lumotni o'zlashtirish, ma'lumotlarni yig'ish usullari, tahlil usullari, matn bilan ishlash qobiliyati hamda nazariy va amaliy bilimlarni taqqoslashni kiritish mumkin. Ta'lim natijalariga esa mualliflik mahsulotlarini yaratish, shaxsiy maqsadlarni shakllantirish va ularga erishish, professional kompetentlik darajasini oshirish, qaror qabul qilish tajribasining hosil bo'lishi, yangi va notanish vaziyatlarda hatti-harakat qilish qobiliyati va muammolarni yechish kabilar kiradi. Aynan shu sababli raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda keys usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Patrick W. A. What kind of research is essential to good teaching? //Journal of Chemical Education. – 1924. – T. 1. – №. 1. – С. 16.
2. Cooper M. M., Stowe R. L. Chemistry Education Research—From Personal Empiricism to Evidence, Theory, and Informed Practice //Chemical reviews. – 2018. – T. 118. – №. 12. – С. 6053-6087.
3. Tytler R., Prain V. A framework for re- thinking learning in science from recent cognitive science perspectives //International Journal of Science Education. – 2010. – T. 32. – №. 15. – С. 2055-2078.
4. Hofstein A. The laboratory in chemistry education: Thirty years of experience with developments, implementation, and research //Chemistry education research and practice. – 2004. – T. 5. – №. 3. – С. 247-264.
5. McDonnell C., O'Connor C., Seery M. K. Developing practical chemistry skills by means of student-driven problem based learning mini-projects //Chemistry Education Research and Practice. – 2007. – T. 8. – №. 2. – С. 130-139.
6. Ниязов Л.Н. Кейс-стади усули ва ундан кимё таълимида фойдаланиш // Бухоро давлат университети илмий ахбороти журнали. – 2017. – № 3(67). 200-206 б.
7. Ниязов Л.Н., Назаров И.И. О применении кейсов в обучении химии в медицинских вузах // Материалы 66-ой годичной научно-практической конференции ТГМУ им. Абуали ибни Сино с международным участием «Роль и место инновационных технологий в современной медицине» Душанбе. – 2018. – С. 202.

8. Ниязов Л.Н. Аналитик кимё лаборатория машғулотларида кейс-стадини қўллаш имкониятлари //Фан ва технологиялар тараққиёти. – 2018. № 4. – С. 53-57.
9. Carriazo J. G. Laboratory projects using inquiry-based learning: an application to a practical inorganic course //Química Nova. – 2011. – Т. 34. – №. 6. – С. 1085-1088.
10. Reid N., Shah I. The role of laboratory work in university chemistry //Chemistry Education Research and Practice. – 2007. – Т. 8. – №. 2. – С. 172-185.
11. Gary Thomas A typology for the case study in social science following a review of definition, discourse and structure. // Qualitative Inquiry. 2011, 17 (6): 511–521 pp.
12. Miles, M. B., & Huberman, A. M. Qualitative data analysis: An expanded source book (2nd ed.). / Thousand Oaks, CA: Sage, 1994. – 338 p.
13. Case-study [Elektron resurs]. URL: <http://www.merriam-webster.com/dictionary/case%20study> (murojaat etilgan sana: 18.11.2019)
14. Смолянинова О.Г. Инновационные технологии обучения студентов на основе метода Case Study // Инновации в российском образовании: СПб.; М.: ВПО, 2000.
15. Чикер В. А. Методология и методы социально психологических исследований. – СПб., 2010 – 135 с.
16. Сборник кейсов для вузов по дисциплинам гуманитарного и социально-экономического цикла: учебнометодическое пособие СПб.: Издательство Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2015. — 138 с.
17. Андюсев Б.Е. Кейс-метод как инструмент формирования компетентностей // Директор школы. № 4. – С. 61-69.

18. Долгоруков А. Case-study как способ (стратегия) понимания. Практическое руководство для тьютора системы Открытого образования на основе дистанционных технологий. Под ред. А.Долгорукова. М.: Центр интенсивных технологий образования, 2002. С. 22-44.

19. Сергеева Б.В. Использование метода кейс-стади как средство формирования профессиональной компетентности будущих педагогов начального образования // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2015. – Т. 9. – С. 16–20. – URL: <http://e-koncept.ru/2015/95020.htm>.

20. З.Ю. Юлдашев, Ш.И. Бобохужаев Инновационные методы обучения: Особенности кейс-стади метода обучения и пути его практического использования / Ташкент. “IQTISOD-MOLIYA”, 2006. 88 С.

21. Гуревич А. М. Ролевые игры и кейсы в бизнес-тренингах. – СПб., 2006. – 144 с.

22. Скуратовская Н.С. Кейс-метод в оценке персонала // Справочник кадровика. 2007. № 5. С. 98 –104.

23. Yin, R. K. Case study research: Design and methods (3rd ed.). Thousand Oaks, CA: Sage, 2003. – p. 312

24. Stake, R. E. The art of case study research. Thousand Oaks, CA: Sage, 1995. – 192 p.

25. [Электрон ресурс] URL: http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3286194 (мурожаат этилган сана: 27.04.2018)

26. Herreid, C.F. What is a case? Bringing to science education the established teaching tool of law and medicine. //Journal of College Science Teaching. – 1997, – Т.27, – №. 4. – PP.92-94.

27. Herreid C. F., Schiller, N. A., Herreid, K. F., & Wright, C. In case you are interested: results of a survey of case study teachers //Journal of College Science Teaching. – 2011. – Т. 40. – №. 4. – PP. 76-80.

28. National Center for Case Study Teaching in Science, University at Buffalo [Электрон ресурс]URL:<http://sciencecases.lib.buffalo.edu/> (муружаат этилган сана: 20.01.2020)

29. PBL Clearinghouse, University of Delaware [Электрон ресурс] URL:<http://www.udel.edu/> (муружаат этилган сана: 20.01.2020)

30. CASES Online, Emory University [Электрон ресурс] URL:<http://www.cse.emory.edu/cases/>(муружаат этилган сана: 20.01.2020)

31. Майхнер Х.Е. Корпоративные тренинги / Х.Е. Майхнер. – М.: ЮНИТИ, 2002. – 354 с.

32. Günter T., Alpat S. K. The effects of problem-based learning (PBL) on the academic achievement of students studying ‘Electrochemistry’ //Chemistry Education Research and Practice. – 2017. – Т. 18. – №. 1. – С. 78-98.

33. Багиев Г.Л., Наумов В.Н. Руководство к практическим занятиям по маркетингу с использованием кейс-метода // Энциклопедия маркетинга. [Elektron resurs]. URL: <http://www.marketing.spb.ru/read/m21/>.

34. Барнс Л. Б., Кристенсен Р. К., Хансен Э. Дж. преподавание и метод конкретных ситуаций: учебник, ситуации и дополнительная литература. — М.: Гардарики, 2000. — 502 стр.

35. Гладких И.В. Методические рекомендации по разработке учебных кейсов // Вестник Санкт-Петербургского университета. Серия: Менеджмент. — 2005. — Вып. 2. С. 169-194.

36. Михайлова Е. А. Кейс и кейс-метод: процесс написания кейса // Маркетинг. 1999. № 5. С. 113-120; № 6. С. 117-123.

37. Пузиков В.Г. Технология ведения тренинга. – СПб.: Речь, 2007.
38. Ситуационная методика обучения: Теория и практика Состав. Сидоренко А.И., Чуба В.И.- Киев: Центр инноваций и развития, 2001.- 256 с.
39. Ситуационный анализ или анатомия кейс-метода / под ред. д.с.н, проф. Сурмина Ю.П. — Киев: Центр инноваций и развития, 2002. — 296 с.
40. Зельдович Б.З. Ситуационное обучение управленческим дисциплинам — М.: Издательство Экзамен, 2008. — 544 с.
41. Barnes L. B., Chistensen C. R., Hansen A. J. Teaching and the case method — Instructor's Guide. — Harvard Business School Press. — 412 pp.
42. Baxter, P and Jack, S. (2008) Qualitative Case Study Methodology: Study design and implementation for novice researchers, in The Qualitative Report, 13(4): 544-559
43. Case Study Handbook: How to Read, Discuss, and Write Persuasively About Cases (Paperback) William Ellet, Harvard Business Press Books, 2007. — 256p,
44. Choreographing a Case Class V. Kasturi Rangan, Apr 19, 1996. [Elektron resurs]. URL: http://cb.hbsp.harvard.edu/cb/product/595074-PDF-ENG_pullik)
45. Yin R.K. Case Study Research: Design and Methods Third Edition (Applied Social Research Methods). — Sage Publications, 2002. — 200 pp.
46. Сборник кейсов для вузов по дисциплинам гуманитарного и социально-экономического цикла: учебнометодическое пособие СПб.: Издательство Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2015. — 138 с.
47. Андюсев Б. Е. Кейс-метод как инструмент формирования компетентностей // Директор школы. № 4. – С. 61-69.

48. Долгоруков А. Case-study как способ (стратегия) понимания. Практическое руководство для тьютора системы Открытого образования на основе дистанционных технологий. Под ред. А.Долгорукова. М.: Центр интенсивных технологий образования, 2002. С. 22-44.

49. Сергеева Б. В. Использование метода кейс-стади как средство формирования профессиональной компетентности будущих педагогов начального образования // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2015. – Т. 9. – С. 16–20. [Elektron resurs]. URL: <http://e-koncept.ru/2015/95020.htm>.

50. Markic S., Eilks I. A case study on German first year chemistry student teachers beliefs about chemistry teaching, and their comparison with student teachers from other science teaching domains //Chemistry Education Research and Practice. – 2008. – Т. 9. – №. 1. – С. 25-34.

51. Bulte A. M. W. et al. A research approach to designing chemistry education using authentic practices as contexts //International Journal of Science Education. – 2006. – Т. 28. – №. 9. – С. 1063-1086.

52. Burmeister M., Rauch F., Eilks I. Education for Sustainable Development (ESD) and chemistry education //Chemistry Education Research and Practice. – 2012. – Т. 13. – №. 2. – С. 59-68.

53. Van Berkel B. et al. Normal science education and its dangers: The case of school chemistry //Science & Education. – 2000. – Т. 9. – №. 1-2. – С. 123-159.

54. Bucat R. Pedagogical content knowledge as a way forward: Applied research in chemistry education //Chemistry Education Research and Practice. – 2004. – Т. 5. – №. 3. – С. 215-228.

55. Kolomuc A., Tekin S. Chemistry teachers' misconceptions concerning concept of chemical reaction rate //Eurasian journal of physics and chemistry education. – 2011. – Т. 3. – №. 2. – С. 84-101.

56. Сафина А. А. Возможности применения кейс-метода в процессе обучения студентов технических вузов //Вестник Казанского технологического университета. – 2013. – Т. 16. – №. 3.

57. Ахромускина И. М. и др. Современные технологии обучения химии. – Directmedia, 2019.

58. Деркач А. М. Кейс-метод в обучении органической химии: составление и использование заданий //Среднее профессиональное образование. – 2010. – №. 11. – С. 45-47.

59. Muminov Z. O. Талабаларнинг мустақил таълим фаолиятини ривожлантириш-ўқув жараёнининг асоси //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 12. – С. 359-367.

60. Ниязов Л.Н. Аналитик кимё фанини ўқитишда кейс-стади // Академик А.Ғ.Ғаниевнинг 85 йиллигига бағишланган “Аналитик кимё фанининг долзарб муаммолари” V Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами – Термиз, –2017, 527-528 бетлар.

61. Тўраев Б. З. Case-study технологиясини қўллаш асосида бўлажак мутахассис кадрлар касбий компетентлигини баҳолашнинг интерфаол усули //Современное образование (Узбекистан). – 2015. – №. 1.

62. Дадамирзаев Г., Юсупов О. Я., Файзуллаев К. М. Мухандислик таълимининг стратегияси: кейс–стади ёндашиш //International scientific journal. – 2016. – №. 1 (1). – С. 32-33.

63. Махсудов В. Г. Гармоник тебранишларни инновацион технологиялар асосида ўрганиш («Кейс-стади»,«Ассесмент»,«Венн диаграммаси» мисолида) //Современное образование (Узбекистан). – 2017. – №. 7.

64. Aleksandrov A.Yu., Zakharova A.N., Nikolaev E.L. New Challenges in Engineering Education: Personal Advancement for Better

Marketability of Future Professionals. Proceedings of 2015 International Conference on Interactive Collaborative Learning (ICL). 20-24 September 2015, Florence, Italy. P. 452-454. DOI: 10.1109/ICL.2015.7318072.

65. Drovnikov A.S., Nikolaev E.L., Afanasev A.S., Ivanov V.N., Petrova T.N., Tenyukova G.G., Maksimova N.L., Povshednaya F.V. Teachers Professional Competence Assessment Technology In Qualification Improvement Process. International Review of Management and Marketing, 2016, 6(1), 111-115.

66. Erdyneeva K.G., Nikolaev E.L., Azanova A.A., Nurullina G.N., Bogdanova V.I., Shaikhlislamov A.K., Lebedeva I.V., Khairullina E.R. Upgrading Educational Quality through Synergy of Teaching and Research. International Review of Management and Marketing, 2016, 6(1), 106-110.

67. Morova N.S., Zakharova A.N., Talanova T.V., Dulina G.S., Nikolaev E.L. Psychology of personal competitiveness of students in the system of higher education. Proceedings of the 30th International Business Information Management Association Conference, IBIMA 2017 - Vision 2020: Sustainable Economic development, Innovation Management, and Global Growth. January, 2017. P. 4460-4468.

68. Theory and reality - image of a man in the social science / Aleksandrov A., Capkova M., Dostal J., Emelianova M., Feber Ja., Fazekas C., Gubova O., Hauer T., Hrehova H., Jakubcova D., Klega J., Kowalikova P., Nikolaev E., Matochova Ja., Petfikova P., Petfikova P., Mariana R., Rakowski R., Rusnak P., Solansky O. et al. Ostrava, 2015. 200 p.

69. Александров А.Ю., Захарова А.Н., Николаев Е.Л. Формирование личностной конкурентоспособности будущего профессионала в условиях классического университета // Проблемы современного педагогического образования. 2016. № 51-5. С. 480-487.

67. Батаршев А.В. Базовые психологические свойства и самоопределение личности: Практическое руководство по психологической диагностике. СПб.: Речь, 2005. С.44-49.

68. Гордеева Т. О., Сычев О. А., Осин Е. Н. Опросник "Шкалы академической мотивации" // Психологический журнал. 2014. Т. 35. №. 4. С. 96-107.

69. Диагностика мотивации достижения (А.Мехрабиан) / Фетискин Н.П., Козлов В.В., Мануйлов Г.М. Социально-психологическая диагностика развития личности и малых групп. М. 2002. С.98-102.

70. Дубовицкая Т.Д. Методика диагностики направленности учебной мотивации // Психологическая наука и образование. 2002. №2. С.42-45.

71. Карпов А.В. Рефлексивность как психическое свойство и методика ее диагностики // Психологический журнал. 2003. Т. 24. № 5. С. 45-57.

72. Корнилова Т. В. Мельбурнский опросник принятия решений: русскоязычная адаптация // Психологические исследования: электронный научный журнал. 2013. Т. 6. № 31. С. 4.

73. Корнилова Т. В., Корнилов С. А. Интуиция, интеллект и личностные свойства (результаты апробации шкал опросника С. Эпстайна) // Психологические исследования: электронный научный журнал. 2013. Т. 6. №. 28. С. 5.

74. Магомед-Эминов М.Ш. Тест-опросник измерения мотивации достижения. Модификация тест-опросника А. Мехрабиана // Практикум по психодиагностике. Психодиагностические материалы/Ред. колл. АА Бодалев и др. М.: Изд-во МГУ. 1988. С. 88-93.

75. Моросанова В.И. Индивидуальный стиль саморегуляции. М.: Наука, 2001. 192 с.

76. Николаев Е.Л. О психологическом подходе к оценке психического здоровья населения // Социальная и клиническая психиатрия. 2006. Т. 16. № 3. С. 38-45.

77. Николаев Е.Л., Александров А.Ю. Образовательные траектории в системе подготовки психиатров, наркологов, психотерапевтов, психологов в Чувашии // IV съезд психиатров, наркологов, психотерапевтов, медицинских психологов Чувашии Материалы IV съезда психиатров, наркологов, психотерапевтов, медицинских психологов Чувашии. Чебоксары. 2010. С. 41-43.

78. Николаев Е.Л., Комиссарова Н.И., Григорьева Н.Н., Герасимова М.Н. Потенциал здоровья студенческой молодежи: личностные и поведенческие факторы риска // Научно-медицинский вестник Центрального Черноземья. 2010. № 41. С. 16-21.

79. Осин Е. Н. Факторная структура русскоязычной версии шкалы общей толерантности к неопределенности Д. Маклейна // Психологическая диагностика. 2010. №. 2. С. 65-86.

80. Ромек В. Г., Шварцер Р., Ерусалем М. Русская версия шкалы общей само-эффективности Р. Шварцера и М. Ерусалема // Иностранная психология. 1996. №. 7. С. 71-77.

81. Энциклопедия психодиагностики - Psylab.info // URL: <https://psylab.info.html> (дата обращения: 21.03.2020).

82. Дембицкий С. Типы кейс-стади [Elektron resurs]. URL: <http://www.soc-research.info/qualitative/1-1.html>

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

I BOB. OLIY TA'LIMDA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA KEYS USULINI QO'LLASH IMKONIYAT VA MUAMMOLARI

Keys usuli kasbga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi sifatida	12
Keys usuliga umumiy tavsif	15
Keyslarning turlari va ularni ifodalash usullari.....	20
Keys usuli to'g'risida qiziqarli faktlar	28
Keyslarning manbalari	29

II BOB. KEYS USULI ASOSLARI

Keysning tuzilishi va uni shakllantirish tamoyillari	38
Keyslarni tahlil qilish turlari va hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalar.....	42
Keys usuli ta'lim texnologiyasi sifatida.....	47

III. OLIY TA'LIMDA KIMYO FANINI O'QITISHDA KEYS USULI IMKONIYATLARI

Keys usulini qo'llashdagi to'siqlar va imkoniyatlar	63
Keys usulini qo'llaydigan o'qituvchining roli	72
Keysni ishlash va uning natijasini baholash.....	78
1. Tog'li hudud keysi	80
2. Daryodagi suv muammosi keysi.....	82
3. Yosh bola muammosi keysi.....	86

IV. TALABALAR ORASIDA SO'ROV O'TKAZISH VA UNI TAHLIL QILISH USLUBIYOTI

Yumshoq ko'nikmalar va keys usuli	97
Talabalar orasida psixologik so'rov o'tkazish bizga nima beradi?	98
So'rov qanday o'tkaziladi?.....	99
Tadqiqot uchun tavsiya etilgan psixologik xususiyatlar.....	100
XULOSA	114
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	115

Niyazov Laziz Nurxonovich
Nikolayev Yevgeniy Lvovich
Safarova Nafisa Sulaymonovna

Oliy tibbiyot ta'limida kimyo fanlarini o'qitishda keys usulini qo'llash masalalari / Monografiya. – Buxoro, 2020 – 128 b.

Monografiyada kimyo fanini oliy tibbiyot ta'limida o'qitish masalalari tadqiq qilingan. Kimyo fanidan keyslar ishlab chiqish va dars jarayonida qo'llash bo'yicha nazariy va amaliy ma'lumotlar hamda tavsiyalar keltirilgan. Shu bilan birga keys usulida o'tilgan dars natijasini va talabalar bilimini tahlil qilishning psixologik asoslari, mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan keyslarga oid misollar keltirilgan. Monografiya oliy ta'lim muassalari professor-o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorant va magistrantlari hamda keys usulini ta'lim jarayoniga joriy qilmoqchi pedagoglar uchun amaliy qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

Ниязов Лазиз Нурхонович
Николаев Евгений Львович
Сафарова Нафиса Сулаймоновна

Вопросы применения кейс-метода в преподавании химии в высшем медицинском образовании / Монография. – Бухара, 2020 – 128 с.

В монографии рассмотрена специфика применения в преподавании химии в системе высшего медицинского образования инновационного подхода – кейс-метода. Приведена информация теоретического и практического характера, примеры авторских кейсов, рекомендации по разработке кейсов по химии и их применению в образовательном процессе. Также содержатся рекомендации по проведению и психологической оценке опроса студентов с целью анализа академических, личностных и стилевых характеристик их учебной активности. Может быть использована в качестве практического руководства для преподавателей высших учебных заведений, исследователей, докторантов и магистрантов, а также желающих внедрить кейс-метод в образовательный процесс.

Niyazov Laziz Nurkhonovich
Nikolaev Evgeni L'vovich
Safarova Nafisa Sulaymonovna

Issues of using the case method in the teaching of chemistry in higher medical education / Monograph. - Bukhara, 2020 - 128 p.

The monograph examines the specifics of the application of the innovative approach, the case method, in the teaching of chemistry in the system of higher medical education. Information of a theoretical and practical nature, examples of copyright cases, recommendations on the development of cases on chemistry and their application in the educational process are given. It also contains recommendations for conducting and psychological evaluation of a student survey in order to analyze the academic, personal and stylistic characteristics of their educational activity. It can be used as a practical guide for teachers of higher educational institutions, researchers, doctoral students and undergraduates, as well as those wishing to introduce the case method into the educational process.

Qaydlar uchun

NIYAZOV L.N., NIKOLAYEV Y.L., SAFAROVA N.S.

OLIY TIBBIYOT TA'LIMIDA KIMYO FANLARINI O'QITISHDA KEYS USULINI QO'LLASH MASALALARI

<i>Muharrir:</i>	<i>G'. Murodov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G. Samiyeva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>M. Raximov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M. Arslonov</i>

Nashriyot litsenziyasi A-1 № 115 30.09. 2008. Original maketdan bosishga ruxsat etildi. 15.06. 2020. Bichimi 60x84. Kegli 14 shponli.
«Times» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'ozi.
Bosma tabog'i 8,0. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № __.

Sadriddin Salim Buxoriy MCHJ "Durdona" nashriyoti: Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11. Bahosi kelishilgan narxda.

"Sharq-Buxoro" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri, O'zbekiston Mustaqilligi ko'chasi, 70/2-uy.
Tel.: (0365) 222-46-46.